

FUQAROLIK PASPORTI VA ID-KARTA



O'zbekiston Respublikasi mulki, uning egasi davlat himoyasida

13

SINCHKOVLIGI ISH BERDI

... F.R. hududda xizmat faoliyatini olib borayotgan ichki ishlar organi xodimining sinchkov nazaridan qochaman deb xatoga yo'l qo'yanini tushunganida kech bo'lgandi...



17

ESKIRMAIDIGAN MAVZU

YOXUD IMLODAGI XATOLAR «SURUNKALI DARD»GA AYLANMASIN



19



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2024-yil
1-fevral
payshanba

№ 5 (4647)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

HAMJIHATLIKDA HIKMAT KO'P



Jizzax viloyati Baxmal tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasining xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Zumrad Jamurotova o'tgan yilda boshqa sohaviy xizmatlar xodimlari, mahalla fuqarolar yig'inlari faollari bilan birgalikda 119 ta oiladagi nizolarni bartaraf etishga erishdi.

Chunonchi, yarashtirish yo'li bilan 110 ta oilada ajrimga yo'l qo'yilmadi, tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rganlarning 116 nafariga himoya orderi berilishi ta'minlandi. Shuningdek, uning tashabbusi bilan ko'plab sport musobaqalari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qilindi.

Suratda: katta leytenant Zumrad Jamurotova (o'rtada), profilaktika inspektori, leytenant Humoyun Umarov, «Fayzobod» mahalla fuqarolar yig'ini faoli Madina Qarshiyeva.

TEZKOR YIG'ILISH

TANQIDIY-TAHLILY RUHDA

Joriy yilning 30 va 31-yanvar kunlari Qarshi va Termiz shaharlarida Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov ishtirokida tezkor yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishlarda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari ichki ishlar organlarining xizmat faoliyatiga oid dolzarb masalalar chuqur va atroflicha muhokama qilindi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish, kriminogen vaziyatni yanada yaxshilash bo'yicha galdagi aniq vazifalar belgilab olindi.

QASHQADARYO VILOYATI



Qarshi shahrida o'tkazilgan yig'ilishda viloyat hokimi Murotjon Azimov, viloyat hamda shahar va tuman sektor rahbarlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar mutasaddilari ishtirok etdi.



Yig'ilishda viloyatda o'tgan yilda jinoyatchilikka qarshi kurash borasida olib borilgan ishlar, jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosi, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, xizmat intizomi va qonuniylikka rioya etilishi hamda boshqa qator muhim yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar tanqidiy-tahliliy muhokama qilindi.

Shuningdek, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va jinoyatchilikni «mahallabay» jilovlash dasturlarining amalga tatbiq etilishida barcha sektorlar rahbarlari va mahallalarda shakllantirilgan yettilikning hamkorlik masalalariga jiddiy e'tibor qarati-

lib, kriminogen vaziyatga ta'sir etuvchi ijtimoiy-maishiy muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalar belgilandi.

Yig'ilishda tashkiliy masala ko'rildi. Ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan Qashqadaryo viloyati IIB boshlig'i lavozimiga shu kunga qadar Surxondaryo viloyati IIB boshlig'i lavozimida xizmat qilgan polkovnik Abduvohid Salomovich Ismoilov tayinlandi.

Yig'ilishda ko'tarilgan muammolar, yechimini kutayotgan masalalar bo'yicha ishtirokchilarning taklif va mulohazalari tinglanib, yangi tayinlangan viloyat IIB rahbariga tegishli topshiriqlar berildi.

SURXONDARYO VILOYATI

Vohada jamoat xavfsizligini va kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov, Ichki ishlar vazirligi sohaviy xizmat rahbarlari, sektor mutasaddilari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mas'ul xodimlari qatnashdi. Unda davlatimiz rahbarining mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash, hududlarda jamoat xavfsizligi va fuqarolar osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishda «mahallabay» va «fuqarobay» ish tashkil etish borasidagi topshiriqlari, ichki ishlar organlari faoliyatining yillik sarhisobi hamda kelgusida tizim faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi atroflicha muhokama qilindi.



Yig'ilish davomida viloyatda oila-turmush munosabatlari doirasida, shuningdek, yoshlar, ayollar tomonidan hamda ihsizlik oqibatida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish, bu borada «mahalla yettiligi»ning hamkorlik masalalari tanqid qilindi. Hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan og'ir mahallalarda sektor rahbarlari, mahalla raislari, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar

xizmat intizomi va qonuniylikka rioya etilishi hamda boshqa yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar tanqidiy ruhda ko'rib chiqilib, aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan vazifalar belgilandi.

Yig'ilishda tashkiliy masala ko'rildi. Ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i lavozimiga polkovnik Timur Kamolitdinovich Ismailov tayinlandi.



faollari tomonidan fuqarolarni qabul qilish va ularning muammolarini hal etish vazifalariga jiddiy e'tibor qaratish zarurligi qayd etildi.

Shuningdek, yig'ilishda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish,

Tadbirda ko'tarilgan muammolar va yechimini kutayotgan masalalar bo'yicha soha mutasaddilarining taklif va mulohazalari tinglandi.

IIV Axborot xizmati.



SARHISOB VA REJALAR

O'ZIGA XOS KO'PRIK

IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentida Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2023-yilgi faoliyati yakunlariga bag'ishlangan hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi. Tadbir oldidan Kengash a'zolari «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida yangitdan barpo etilgan «Ichki ishlar organlari tarixi» muzeyida bo'lib, uning eksponatlari bilan yaqindan tanishishdi.



– Ichki ishlar organlari o'zida juda katta va boy tarixni jamlagan. Sohada turli davrlarda xizmat qilgan xodimlarning mashaqqatli mehnati, ular bosib o'tgan shonli yo'l kelajak avlod uchun chinakam hayot maktabi ekanligi muzeyda tashkil etilgan «Mard o'g'lonlar xotirasi mangu

publika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lim boshlig'i Maxprat Zikirova Departament faoliyati bilan tanishish jarayonidan olgan taassurotlari bilan o'rtoqlashib. – Demak, zamonaviy texnik vositalar jazoni ijro etish tizimida mahkumlar va mahbuslarga nisbatan xodimlar tomonidan tazyiq

borilayotgan tarbiyaviy ishlar o'z samarasini berayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Buning natijasida soha vakillarining xalqimiz orasida obro'-e'tibori ortib bormoqda.

Ma'lumki, Kengash ichki ishlar organlari faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, soha bo'yicha ijtimoiy fikrni o'rganish va tizimli monitoring olib borish kabi bir qator vazifalarni bajarish maqsadida tashkil etilgan. IIV huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi, O'zbek milliy akademik drama teatri direktori, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Yodgor Sa'diyev 2023-yil davomida ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar xususida to'xtaldi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari sohasida islohotlar izchil davom etayotganligini e'tirof etdi. U tizimni xalqchil tuzilmaga aylantirish yuzasidan Jamoatchilik kengashining bir qator takliflarini ilgari surdi. Kengash bugungi kunda ichki ishlar organlari va xalqimiz o'rtasida o'ziga xos ko'priq vazifasini bajarib kelayotganini ta'kidladi.

Yig'ilishda IIV Axborot xizmati hamda Fuqarolar murojaatlari bi-

lan ishlash boshqarmasi mas'ullarining ham hisobotlari tinglandi. Ochiq va samimiy ruhda o'tgan hisobot uchrashuvi davomida Kengash a'zolari turli sohaviy xizmatlar mas'ullaridan o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olishdi.

Tadbirda Ichki ishlar vazirining maslahatchisi, Kengash raisining o'rinbosari, general-polkovnik Zokirjon Almatov so'zga chiqib:

– O'tgan yili jami jinoyatlar 1,2 foizga qisqardi. Eng og'ir jinoyatlardan bo'lgan qotilliklar kamaydi. Bosqinchilik 28,4 foizga, talonchilik 11,8 foizga, firibgarlik 15 foizga, o'g'rilik 2,5 foizga qisqarishiga erishildi, – dedi. Shundan so'ng Kengash a'zolariga yuzlanib:

– Ichki ishlar organlari faoliyatini har tomonlama, xolisona o'rganib, kelgusida xodimlarimiz tomonidan qonunbuzarliklar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikda sizlar bizga yaqin ko'makdosh bo'lishingizga ishonamiz, – dedi.

Notiq ayni paytda ichki ishlar organlarining yanada xalqchil tuzilmaga aylanishida Kengash a'zolarining hissasi katta ekanligini ta'kidladi. Shuningdek, Jamoatchilik kengashining kelgusidagi ish faoliyati rejaları xususida to'xtalib o'tdi.

Muxtasar aytganda, o'tkazilgan hisobot yig'ilishi IIV huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, ichki ishlar organlari faoliyatidagi korrupsiya holatlari bo'yicha internet va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan xabarlarini batafsil o'rganish va uning natijasini keng jamoatchilikka yetkazish borasidagi faolligini oshirish yuzasidan bildirilgan aniq taklif hamda tavsiyalarni amalga oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bobomurod TOSHEV.



barhayot», «Tarix va bugun» kabi burchaklarda o'z aksini topgan. Muzeyning barcha uchun ochiqligi fidoyi va zahmatkash xodimlarning kechagi hamda bugungi faoliyati haqida qiziqarli ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi, – dedi IIV huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi, O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim.

Shundan so'ng yig'ilish ish-tirokchilari IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti, xususan Navbatchilik qismi faoliyati, jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar uchun yaratilgan sharoitlari, mazkur sohada amalga oshirilgan islohotlar bilan tanishishdi.

– Joylardagi jazoni ijro etish muassasalari to'liq kameralashtirilib, Navbatchilik qismiga integratsiya qilingan ekan. Bu esa shu yerdan turib muassasalar hayotidan boxabar bo'lib turish imkonini beryapti, – dedi Res-

o'tkazish, qiynoqqa solish kabi noqonuniy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olishga xizmat qilyapti. Shu o'rinda mutaxassis sifatida ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, olib



Женщины в погонах

Андижанская область

Женщина-сотрудница ОВД должна быть физически подготовленной, владеть приемами самообороны, знать ответы на все вопросы, связанные с законодательством в правоохранительной области, быть хорошим психологом. Всеми этими качествами обладает инспектор профилактики майор Шахноза Мирзаева.



После окончания Академии МВД Шахноза Мирзаева была назначена инспектором группы по предупреждению безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних Кургантепинского РОВД. На этой должности она прослужила около семи лет.

Затем была переведена в Управление обеспечения безопасности на транспорте Андижанской области. Работала старшим инспектором группы по предупреждению безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних. С прошлого года майор Ш. Мирзаева служит инспектором профилактики управления.

– Протяженность вверенного мне участка железной дороги от станции «Янги Андижон» до станции «Джалакудук» составляет 25 километров, – рассказывает Ш. Мирзаева. – На участке расположено 14 махаллинских сходов граждан и 10 школ. Поделив условно участок на несколько частей, совершаю обходы территории. Беседую с жителями махаллей, которые расположены вблизи железнодорожного полотна, призываю граждан не разрешать детям играть у магистрали, заниматься выпасом домашних животных.

Майор Шахноза Мирзаева вместе с супругом, офицером подразделения Национальной гвардии подполковником Алишером Чориевым, воспитывают пятерых детей.

**Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.**

На снимке: майор Шахноза Мирзаева с сотрудницей группы патрульно-постовой службы рядовой Зулайхо Тожибаевой.

ЖЕМЧУЖИНЫ МУДРОСТИ

«Нечестно нажитое впрок не идет».

Восточная мудрость.

* * *

«Если вы подаете пример правильного поведения, кто осмелится продолжать вести себя неправильно?»

**Конфуций,
китайский философ.**

* * *

«С помощью больших денег больше людей продано, чем куплено».

**Фрэнсис Бэкон,
английский философ,
писатель.**

* * *

«Того, кто хоть что-нибудь стоит, довольно трудно купить».

**Эдуард Севрус,
русский писатель.**

* * *

«Честность неотделима от свободы, как коррупция от деспотизма».

**Анатоль Франс,
французский писатель.**

Мы против коррупции!

Республика Каракалпакстан


В ходе рейда «Орият», проведенного недавно сотрудниками УКД ОВД города Нукуса, гражданка Ш. Д. была уличена в совершении правонарушения.

Вместо того, чтобы сделать правильные выводы, женщина усугубила свое положение. Настойчиво предлагая взятку в 100 долларов США старшему инспектору профилактики ОВД № 4 УКД ОВД города Нукуса капитану Атабеку Даулетбаеву, она пыталась уговорить инспектора спустить все на тормозах, не доводя дело до суда. Капитан неоднократно разъяснял женщине, что дача взятки – дело уголовно наказуемое. Но женщина не унималась.

В результате проведенной операции Ш. Д. была задержана в служебном кабинете капитана А. Даулетбаева при попытке дачи взятки.

Возбуждено уголовное дело, ведется следствие.

– К сожалению, несмотря на меры, направленные на противодействие коррупции, есть те, кто убежден, что «денежным путем» можно решить все



проблемы, – заявил капитан А. Даулетбаев. – Это социальное зло наносит ущерб обществу. Мы не поддаемся на провокации лиц, стремящихся к подкупу, решительно

пресекаем любые коррупционные проявления, выступаем за честность, верность принципам служения государству и обществу.

Соб. корр.



▷ ФАРЗАНДЛАР ОТАЛАР ҲАҚИДА

ШУНДАЙ ОТА БИЛАН

ФАХРЛАНМАЙ БЎЛАДИМИ?!



Отам, истеъфодаги генерал-майор Фафуржон Раҳимов 1929 йилнинг 1 февраль куни Андижон шаҳридаги хунарманд Абдурахим ота хонадонидан дунёга келган. Унга яхши ниятларда Фафуржон деб исм қўйишди. Лекин болага ота-она меҳрига тўйиш насиб этмади. Фафуржон 2 ёшлигида отасидан, 10 ёшга тўлганида эса онасидан жудо бўлди.

Бугун отамиз ҳаёт бўлганида 95 ёшга тўлар эди.

ланишга топширилишига бош-қош бўлди. Ички ишлар органлари зарур автотранспорт, алоқа, криминалистик, техник воситалар билан таъминланди.

У ходимларнинг касбий ва жанговор тайёргарлигига ҳам катта эътибор қаратди. Жиноятларни келтириб чиқарувчи шарт-шароитлар ва сабаблар ўрганилиб, уларнинг олдини олишга қаратилган бир қатор кенг қамровли профилактик тадбирлар амалга оширилди.

Жумладан, кўнгилли халқ дружиналари ва жамоат жойларида мунтазам патруль-пост хизмати ташкил этилди. Такси ҳайдовчила-

бахоланиб, «Андижон тажрибаси»дан иттифоқдош республикалар ички ишлар органларида фойдаланиш хусусида кўрсатма берилди.

1983 йил июнь ойида Фафуржон Раҳимов Бухоро вилояти ИИБга раҳбар, 1985–1991 йилларда эса республика Ички ишлар вазирининг ўринбосари лавозимида хизмат қилди. 1991 йил сентябрда Зокиржон Алматов мустақил Ўзбекистоннинг Ички ишлар вазирини этиб тайинланганда, отамиз вазирнинг 1-ўринбосари лавозимида юрт осойишталигини таъминлаш, халқ манфаатларини ҳимоя қилиш йўлида бор

куч-ғайрати ва билимини сафарбар қилди.

Ўтган асрнинг 90-йилларида собиқ Иттифоқнинг барча республикаларида авж олган буюртма қотиллик, рэкет, тамагирлик, босқинчилик, автомобиль олиб қочиш каби жиноятлар мамлакатимизни ҳам четлаб ўтмади. Фафуржон Раҳимов уюшган жиноятчилар томонидан содир этилган ушбу

турдаги жиноятларни фош этишга бевосита раҳбарлик қилди. Франция, Эрон, Туркия, Сенегал каби бир қатор хорижий давлатларда бўлиб, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, содир бўлган жиноятларни фош этиш бўйича илғор тажрибаларини ўрганиб, республикамиз ички ишлар органлари фаолиятига татиқ қилишда ўзининг муносиб ҳиссасини қўшди.

Тизимдаги қирқ йилдан ортиқ хизмат фаолияти давомида кўплаб ходимларга устозлик қилди.

Б. Матлюбов, Т. Худойбергенов, А. Азизов, Қ. Бурҳонов, Т. Муллажонов, Ф. Қодиров, А. Қўлдашев каби фидойи, ватанпарвар, ташаббускор генераллар уни ўз устози деб билишади.

Отамиз онамиз Хоназм ая билан бирга оилада фарзанд тарбиясига ҳам алоҳида эътибор қаратардилар. Ҳамжихатликда бизларни бекаму кўст вояга етказдилар. Барчамиз олий маълумотли бўлдик, кўпчилигимиз ота касбини давом эттирдик. Набираю эвараларнинг ҳам бир қанчаси шу йўлдан кетишди, айримлари эса халқ хўжалиги тармоқларида эл-юрт қорига яраб, фаолият кўрсатмоқдалар.

Фафуржон Раҳимов 1993 йилда генерал-майор унвонида истеъфого чиққач, умрининг охиригача ИИБ Фахрийлар кенгашига раислик қилди. У «Кексалик – бекорчилик эмас» шиориغا риоя этиб, чорак аср давомида Фахрийлар кенгашининг аъзолари билан биргаликда ушбу ҳодимларни ватанпарварлик, бурчга садоқат, ҳалоллик руҳида тарбиялашга муносиб ҳисса қўшди. Шунингдек, МДХ мамлакатлари ИИО тизими фахрийлари билан ўзаро ҳамкорлик алоқаларини мустаҳкамлаш мақсадида Москва, Боку, Киев, Минск шаҳарларида бўлиб ўтган ўқув-семинарларда ўз маърузалари билан иштирок этди.

Падаримизнинг эл-юрт тинчлик-осойишталигини таъминлаш йўлидаги фидойиларча хизматлари юксак баҳоланиб, у қатор ордено-медаллар, фахрий унвонлар билан тақдирланган. Эл орасида эса «Ички ишлар органлари генерал отахони» дея шуҳрат қозongan. Биз фарзандлари у киши билан ҳақли равишда фахрланамиз. Шундай ота билан фахрланмай бўладими?!

Фуломжон РАҲИМОВ, истеъфодаги полковник.

Отамиз ўтган асрнинг 30-йилларидаги қаҳатчилик, қимматчилик, очарчилик қийинчиликларини бошидан кечирди. Фашист босқинчиларига қарши уруш айнави авжга чиққан паллада қонли жанглар оқибатида шаҳарларда қаровсиз, ота-онасиз, оиласиз вояга етмаганлар кўпайди. 1942 йили Андижон шаҳридаги «Ватан учун» тўқимачилик артели раҳбари Рисолат ая Фафуржонни фарзанд қилиб асраб олди, тарбиялади.

Падари бузрукворимиз меҳнат фаолиятини 13 ёшидан шу артелда тўқимачига шогирдликдан бошлаб, 1949 йилгача тўқимачи, уста вазибаларида ишлади. Меҳнатдан ажралмаган ҳолда кечки ўрта мактабни тамомлади. 1949 йилда вилоят ИИБ бошлиғи уни яна бир неча андижонлик йигитлар қатори Тошкентдаги милиция ўрта махсус мактабига ўқишга юборди.

Отам таълим муассасасини аъло баҳоларга битириб, фаолиятини Андижон вилояти ИИБ Давлат мулкнинг талон-тарожига қарши курашиш бўлимида тезкор вакил лавозимидан бошлади. Кейинчалик шу бўлимда катта тезкор вакил, бўлим бошлиғи ўринбосари, бўлим бошлиғи лавозимларида хизмат қилди. Сиртдан

Тошкент давлат юридик институтининг ҳуқуқшунослик факультетини тамомлади.

У зийрак ва билимдонлиги, камтар, хушфеъл ва адолатпарварлиги билан ҳамкасблари ўртасида ҳурматга сазовор бўлиб, раҳбарлар на-



зарига тушиб, 1967 йилда вилоят ИИБ бошлиғининг 1-ўринбосари лавозимида хизмат қилди.

1979 йилда Андижон вилояти ИИБ бошлиғи лавозимида фаолиятини давом эттирган Фафуржон Раҳимов вилоят ИИБ ва унинг қуйи тизимларидаги ходимларнинг хизмат қилишлари учун янги, замонавий маъмурий бинолари қуриб, фойда-

рининг алоқа воситалари ИИО навбатчилик қисмига уланди. Фуқаролар кўп тўпланадиган бозор, вокзал, автобекат, кафе-ресторанлар жойлашган ҳудудларга ИИБ билан тўғридан тўғри алоқага чиқиш мумкин бўлган чақирув будқалари ўрнатилди. Жиноятчиликни жиловлашга олиб келган ушбу амалий тадбирлар собиқ Иттифоқ ИИВнинг 1982 йилда Калуга шаҳрида ўтказилган кўчма Ҳайъат йиғилишида ижобий

★ Молодежь — наше будущее

РЕАЛИЗОВАТЬ СВОЙ ПОТЕНЦИАЛ

Недавно, в сентябре 2023 года, коллектив ЭКЦ ГУВД города Ташкента пополнился молодым сотрудником, окончившим с красным дипломом факультет подготовки иностранных специалистов по направлению судебной экспертизы Московского университета МВД имени В. Я. Кикотя. Лейтенант Т. Худойбердиев служит в отделе криминалистики.

Пять лет учебы позволили получить допуски по семи направлениям традиционных экспертиз. Это дактилоскопия, портретная экспертиза, почерковедческая, технико-криминалистическая экспертиза документов, судебно-баллистическая и экспертиза холодного оружия. Самой интересной Т. Худойбердиев считает почерковедческую экспертизу, которой в основном сегодня и занимается в ЭКЦ.

— Коллеги оказались искренними и отзывчивыми людьми. Группа моих

наставников состоит из профессионалов, что положительно влияет на обретение опыта. Все сотрудники обладают высоким уровнем знаний. Это вдохновляет и мотивирует. Уверен, что смогу расширить свои навыки и достичь цели — стать классным специалистом, — говорит молодой сотрудник. — Первый мой наставник — заместитель начальника ЭКЦ подполковник Алишер Равшанбеков. Он помогал постигать тонкости нормативно-правовых актов, касающихся моей работы, был рядом, когда прово-

дил первые экспертизы. Отдельно хочется поблагодарить начальника ЭКЦ подполковника Станислава Пака за поддержку.

В планах Темура — повышение профессионального уровня, получение допусков на производство новых видов экспертиз. Тем, кто сегодня учится в вузах, лейтенант советует прислушиваться к словам преподавателей: усвоенные знания обязательно будут востребованы в службе.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.



(Фото из личного архива.)

■ Джизакская область

СТАЛЬНЫЕ МАГИСТРАЛИ, ПРЕДПРИЯТИЯ, МАХАЛЛИ...

Все это входит в зону ответственности сотрудников Управления обеспечения безопасности на транспорте.



Три случая мошенничества, по одному хищению, ограблению, преступлению, связанному с наркотическими средствами и незаконным использованием беспилотного летательного аппарата, были раскрыты сотрудниками Управления обеспечения безопасности на транспорте Джизакской области в 2023 году. Также задержаны 12 несунув. Установлено местонахождение и задержаны восемь лиц, скрывавшихся от правоохранительных органов.

За минувший период текущего года в зоне ответственности

сотрудников управления не допущено ни одного преступления. Выявлены два водителя, совершившие административные правонарушения. В частности, 6 января при проверке двух грузовых машин в махалле Узбекистан Фаришского района выяснилось, что на перевозимые ими грузы не оформлены соответствующие документы. По факту приняты меры в отношении Н. Э. и Д. Б.

Сотрудники несут службу на участке железных дорог протяженностью 303,5 километра, обеспечивают правопорядок на вокзале, 6 разъездах, 11 станциях,

26 железнодорожных переездах, осуществляют контроль на предприятиях АО «Ўзбекистон темир йўллари», расположенных на вверенной территории, ведут проверку пассажирских поездов и грузовых составов.

В зону ответственности входят также близлежащие к путям 56 махаллей города Джизака, Зааминского, Зарбдарского, Шараф-Рашидовского, Галляаральского, Фаришского, Зафарабадского, Пахтакорского, Дусликского, Мирзачульского районов. В составе управления действуют дежурная часть, патрульно-постовая служба, отделы профилактики правонарушений, уголовного розыска и следственный. Большим подспорьем в

работе служат 145 камер видеонаблюдения, установленные на вокзале города Джизака, на станции «Даштабад» и вдоль железнодорожного полотна. В текущем году планируется существенно увеличить количество средств видеонаблюдения.

Исходя из принципа, преступление лучше предупредить, чем расследовать, большое внимание уделяется профилактическим мерам. Разъясняются правила безопасности, до населения доводятся нормы об ответственности за выпас скота на близлежащей к путям местности, порчу железнодорожного состава.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.



▶ ORAMIZDAGI ODAMLAR



«SIZDAN JUDA MINNATDORMAN!»

Safdor Sherzod To'ychiyev Guliston shahar «Navbahor» mahallasida istiqomat qiladi. Tizimda 18 yildan beri xizmat qiladi. Oilali, ikki nafar o'g'li bor. Kamtarligi, halolligi bilan atrofdagilar orasida hurmat qozongan.

– O'sha kuni ertalab yomg'ir shig'alab yog'ib turgandi, – deya eslaydi Guliston shahar hokimligi Axborot xizmati rahbari Shuhrat Yunusov. – Ishga ketayotib, farzandimni bog'chaga tashlashim kerak. Bola emasmi, yo'lda xarxasha qila boshladi. Yo'lda do'konga ko'zim tushdi. Mashinamni to'xtatdim-da, farzandimni yupatish uchun shirinlik olib chiqdim. Kuni buyi ishxonada o'z vazifalarim bilan mashg'ul bo'ldim. Kechki payt soat o'n oltilarga yaqin telefonim jiringladi. Go'shakning narigi tomonidagi inson o'zini ichki ishlar organi xodimi ekanini aytib, hech bir narsa yo'qotmadingizmi, deya so'radi. Ajablandim. U esa qo'lida menga tegishli charm hamyon va bank plastik kartalari borligini bildirdi. Ish joyimga yaqin joyda ekanini, hozir omonatni yetkazib berishini aytdi. Oradan besh daqiqa o'tar-o'tmas ko'rishdik. U hamyonimni qo'limga tutqazdi.

Ma'lum bo'lishicha, bu inson viloyat IIB M va MTTB transport ta'minoti bo'linmalari haydovchisi, safdor Ulug'bek To'ychiyev ekan. Unga qanday minnatdorlik bildirishni bilmasdim. Axir, yo'qolgan ID-karta, haydovchilik gu-

vohnomasi kabi hujjatlar, to'rt-besh bank plastik kartalarini qayta tiklash uchun chakana yugur-yugur kerak bo'lmasdi-da.

– Hovlidan chiqayotib ko'chada yerda loy aralash yotgan buyumga ko'zim tushdi. Yaxshilab razm solsam, hamyonga o'xshadi. Haqiqatan ham, charm hamyon. Ichida allaqancha bank kartalari, hujjatlar. Kartalardan biri «Asakabank»ka tegishli ekan. Bankka kirib, operatorga vaziyatni tushuntirib, karta egasini topishda yordam berishini iltimos qildim. Plastik karta egasi aniqlangach, unga qo'ng'iroq qildik. Yo'qolgan buyum o'z egasiga yetkazib berildi, – deydi Ulug'bek.

Har bir xodim bilimi, muloqot va muomala madaniyati bilan har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilib, zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarsa, el-yurt o'rtasida albatta munosib obro'-e'tibor topadi. Niyatimiz, Ulug'bek To'ychiyev kabi o'z vazifasini halol va vijdonan ado etadigan ichki ishlar organi xodimlari safi ko'payaversin.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

▶ FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

HAYOT MAZMUNI

Iste'fodagi podpolkovnik Sobir Husanov Toshkent tumani IIB Tibbiy hushyorxona navbatchi-inspektori lavozimida sohadagi ilk faoliyatini boshladi. Ustozi, iste'fodagi mayor Abdulla Isomuhamedov esa kasbga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada oshirdi.

Viloyat IIB axloq tuzatish ishlari bo'limi boshlig'i, keyinchalik IIV Jazoni ijro etish bosh boshqarmasida boshqarma boshlig'ining o'rinbosari bo'lib faoliyat ko'rsatdi.

El-yurt osoyishtaligi yo'lida doimo jonkuyarlik qilgan Sobir Husanovning fidokorona xizmatlari munosib qadrlanib, 2004-yilda Prezidentimiz farmoniga binoan, «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

Kasbini hayotining mazmuni deb bilgan podpolkovnik S. Husanov IIV Huquqbuzarliklarning oldini olish bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i lavozimida samarali xizmat qilib, 2010-yilning oktabr oyida izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatildi. Hozirda Toshkent viloyati IIBB Faxriylar kengashi raisi o'rinbosari sifatida o'ttiz yillik xizmati davomida orttir-

gan boy tajribasini tizimda xizmat qilayotgan yosh xodimlarga o'rgatib kelmoqda.

U turmush o'rtog'i Muhayyo aya bilan bir o'g'il va ikki qizni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Ularning el koriga kamarbasta, fidoyi insonlar bo'lishi yo'lida barcha sharoitlarni yaratib berdi va bu harakatlar zoye ketmadi. Yakkayu yagona o'g'li Shuhrat ham ota izidan borib, tanlagan kasbga chin dildan mehr qo'ydi. Bugungi kunda Chirchiq shahar IIB boshlig'ining o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsatayotgan podpolkovnik Shuhrat Husanov malakali mutaxassis sifatida jamiyatimiz rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



Suratda: Iste'fodagi podpolkovnik Sobir Husanov oila a'zolari bilan.



Agar yaxshilik uni amalga oshiruvchi uchun qandaydir maqsadni ko'zlab qilinayotgan bo'lsa yoki majburiy ravishda qilinayotgan bo'lsa, u holda yaxshilik bo'lmay qoladi, chunki komil yaxshilik doimo majburiyatsiz, biror narsaning evaziga qilinmagan yaxshilikdir, bundan chiqdi u chinakam yaxshilik sanaladi.

Abu Ali ibn Sino.

DOIM YORDAMGA SHAY

Bandixon tumanidagi «Qaldirg'och» mahallasi tumanning chekka hududida joylashgan. Birorta ham jinoyat sodir etilmagani tufayli «yashil» hudud toifasiga kiritilgan.

IIB HPB profilaktika inspektori, leytenant Elyor Bekmirzayev mahalla faollari bilan birgalikda aholi muammolarini yechishda, oilalardagi mavjud nizolarni bartaraf etishda faollik ko'rsatib kelmoqda.

– Mahallamizda «Qalqon» yoshlar guruhi tashkil etilgan bo'lib, ular bilan birgalikda tungi navbatchilik tashkil etganmiz, – deydi leytenant Elyor Bekmirzayev. – Ko'chada bemaqsad yurgan fuqarolar, shubhali shaxslar so'roq qilinib, ro'y berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsiz holatlarning oldi olinmoqda. Hududdagi 3 ta maktabda esa «Tig'» va «Davomat» tadbirlarini muntazam olib boramiz. Qolaversa, maktablarda voleybol, shaxmat, shashka, futbol kabi sport to'garaklari faoliyati ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, yoshlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishadi.



Mahallada o'tgan yili 2 ta nizoli oila mavjud edi. Ularning biri – ajrim yoqasida turgan yosh oilaga alohida ko'chib chiqishi uchun mahalla faollarining ko'magida hashar yo'li bilan uy qurib berildi. Bu xayrli ishga mahalla raisi va faollari bosh-qosh bo'lishdi. Shundan so'ng ajrim yoqa-

sida turgan oila yarashtirildi. Ikkinchi oilada ham ko'pning ko'magi bilan olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida murosaga kelindi.

Hokim yordamchisi ko'magida mahalladagi ishsiz fuqarolarga o'zini o'zi band qilishlari uchun subsidiya va kredit mablag'lari ajratildi. Bun-

dan tashqari, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish shoxobchasi hamda 100 o'rinli yangi bolalar bog'chasi ishga tushirildi. Ishsiz fuqarolar profilaktika inspektori va mahalla raising sa'y-harakati bilan ushbu obyektlarga ishga joylashtirildi. Natijada o'tgan yilning o'zida 32 nafar fuqaro doimiy ish o'rniga ega bo'ldi, 115 nafari esa mavsumiy ish bilan ta'minlandi.

– Tuman markazidagi sartaroshxonalaridan birida hunar o'rganib, mahallamizda yangi sartaroshxona ochdim, – deydi fuqaro Yoqub Ashurov. – Buning uchun bizga to'g'ri yo'nalish berib, qo'llab-quvvatlagan profilaktika inspektori va mahalla faollaridan minnatdorman.

Mahalladagi fuqarolar doimiy mehnat bilan band bo'lsa, to'q va farovon yashaydi. Bu, o'z navbatida, hududda osoyishtalik hukm surishiga zamin yaratadi. Shu bois «Qaldirg'och»ning profilaktika inspektori, leytenant Elyor Bekmirzayev ham imkon qadar tinch va farovon yashashi uchun odamlardan qo'lidan kelganicha yordamini ayamaydi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

XOHISH EMAS, HARAKAT MUHIM

IIV Akademiyasining a'lochi bitiruvchilaridan biri bo'lgan katta leytenant Shaxboz Mamayusupov ichki ishlar organlarida xizmat boshlaganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Kitobsevarlar o'rtasida o'tkazilgan «Yosh kitobxon» tanlovi respublika bosqichida hamda «Zakovat» intellektual o'yinida ham bir necha bor g'oliblikni qo'lga kiritgan. Uning eng ahamiyatli yutuqlaridan biri yurisprudensiya yo'nalishi bo'yicha o'z ilmiy ishi bilan xalqaro olimpiadada ishtirok etgani bo'ldi.

Hozirda Samarqand viloyati IIB Tezkor-qidiruv xizmati tashkiliy muvofiqlashtirish bo'limi yetakchi mutaxassisi sifatida faoliyat olib borayotgan Shaxboz fidoyi yoshlardan.

– Bolaligimda uchuvchi bo'lishni orzu qildim, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ulg'aygach, amakim Hamidullo Sa'dullayev kabi xizmat libosi kiyishga havas qildim.

Shaxbozning eng sevimli mashg'uloti – kitob mutolaasi. Jinoyat sodir etilishi sharoitlarini, umuman kriminogen holatni, xavf tug'diruvchi shaxslarning imkoniyatlarini tahlil qilishdek murakkab jinoyat qidi-

ruv yo'nalishida ham kitobxonlikni intellekt manbai deb biladi.

Hozirda katta leytenant Shaxboz Mamayusupov sohaga oid bilimlarini yanada boyitib, jinoyatchilikka oid ilmiy ish, yangi «Xavfsiz shahar» konsepsiyalarini joriy etish va huquqbuzarliklar sonini kamaytirishga qaratilgan boshqa dasturlar bilan shug'ullanmoqda.

– Tabiiyki, keng jamoatchilikni xavotirga solayotgan jinoyat ishlari – ekstremizm, terrorizm yoki o'ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan qotilliklar alohida nazoratga olinadi, – deydi katta leytenant Sh. Mamayusupov. – Biz oddiygina

«bedarak yo'qolgan» so'zining ortida odamlarning taqdiri, yaqinlarining ko'z yoshlari va ko'ngillilarning sa'y-harakatlari yotishini yaxshi tushunamiz. Shu bois doim kasbga sadoqat va fidoyilik xizmatimizning bosh mezonini bo'lishi kerak.

Orzular sari intilish bo'lsa, ular, albatta, amalga oshadi. Katta leytenant Shaxboz Mamayusupov ham nimanidir shunchaki xohlash emas, balki harakat qilish muhim ekanligini biladigan yosh, umidli xodimlardan.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



ЭЛ ДАРДИ-ЛА ЯШАГАН ИНСОН



ИБРАТЛИ УМР

Бутун умри давомида ҳаёт мактабида ўқиган, эл-юрт осойишталиги йўлида шижоат билан хизмат қилган, одамларга эзгулик улашган инсонлардан бири генерал-майор Ёрулла Норбековдир.

У 1934 йилда Жиззах туманидаги Ровот қишлоғида таваллуд топди. Отасидан эрта етим қолган Ёрулла бувиси Азиза аянинг тарбиясидан баҳраманд бўлиб ўсди. Унинг болалик даври Иккинчи жаҳон уруши йилларига тўғри келди. Турмуш қийинчиликлари сабаб, 1946 йили Азиза ая ва Ёрулла Тошкент ви-

тиришда, биринчи галда кадрлар салоҳиятини ошириш, мутахассисларни тайёрлашда ҳамда вилоят ИИБ маъмурий биноси қурилишида ҳамда туман ИИБлари биноларининг қайта таъмирланишида раҳбарлик ва ташкилотчилик қобилиятларини намоён этди.

Унинг ташаббуси билан ИИБ истироҳат боғи, Зомин туманида ходимларнинг фарзандларига ёзги оромгоҳ фойдаланишга топширилди.

ҚИРОВЛИ КУНЛАР

1980 йилларнинг бошида «Ўзбек иши», «Пахта иши» деган машъум ёрликлар меҳнаткаш халқимиз ёқасига ёпиштирилди. Кўплаб туманлар, хўжаликлар раҳбарлари Гдлян, Ивановларнинг сохта айбномалари билан қамалди. Собиқ иттифоқнинг мустабидлик сиёсати яққол намоён бўла бошлаган бир замонда халқимиз бошига тушган қатағонлар эл севган генералнинг ҳаётига ҳам раҳна солди. Вилоят ички ишлар бошқармасига узоқ йиллар раҳбарлик қилган Ё.Норбеков ўша давр қатағонининг қурбони бўлди.

... 1985 йил 1 декабрь куни эрталабдан шум хабар тарқалди: «Ёрулла ака уйида ўзини отиб қўйибди». Фарзандларнинг дод-фарёдлари келган-



лоятининг Қуйи Чирчиқ туманига кўчиб келишди. Ўрта мактабни муваффақиятли битиргач, Тошкент давлат университетининг юридик факультетида таҳсил олди. Дастлабки хизматини 1958 йилда Қуйи Чирчиқ тумани ИИБда терговчилик лавозимида бошлаб, тўрт йил давомида самарали хизмат қилди.

Шундан сўнг Оққўрғон тумани ИИБда катта тезкор суриштирувчи, катта тезкор вакил, катта терговчи лавозимларида тажриба тўплаб, 1963–1974 йиллар давомида ушбу туманда раҳбарлик лавозимида ишлади.

1974 йилда янги ташкил этилган Жиззах вилояти ИИБга раҳбар этиб тайинланган Ё. Норбеков вилоятда ички ишлар тизимини ривожлан-

ларни гангитиб қўйди. Айниқса, Неъматжон отасининг жонсиз танасини кучоқлаб қўйиб юборгиси келмасди: «Отажон, нега бундай қилдингиз, нега бизларни ташлаб кетдингиз...», дея хун бўлиб йиғларди...

«Сизда ором қайда...» китобида ёзилишича, Ўша машъум кун генерал хизмат хонасида ким биландир телефон орқали баланд ва қатъий оҳангда гаплашди. Котибият бошлиғи, ички хизмат подполковниги Салим Нагуманов генералнинг гапларидан ҳайрон бўлиб қолди. Генерал шу куни хизмат столини, ҳужжатларини тартибга келтирди. Сейфдаги хизмат қуролининг патронларини хўжалик бўлимнинг қурол-аслаҳа бўйича инспектори Фофур Пардаевга топширди.

**Хотира бор экан, тирикдир миллат,
Тирикдир ифтихор, тирикдир ғурур.
Хотира – элни халқ этгувчи қудрат,
Хотира – эртани ёритгувчи нур.**

Шу куни кечга яқин Ички ишлар бошқармасидан чиқаётиб учраган ходимлар билан илиқ кўришиб кетди. Жуда ҳам маҳзун кайфиятда эди. Хизмат автомашинаси тўғри шаҳар милицияси бўлимига бориб тўхтади. Генералнинг огоҳлантирмасдан ташриф буюрганидан ўша даврда Жиззах шаҳар ИИБ бошлиғи

«102» тизими кичик мутахассиси лавозимида хизмат қилмоқда.

– Отам етимликда катта бўлган. Рўзғорга ёрдам бериш учун бировларнинг молини боққан, далада меҳнат қилган. Шу билан бирга, яхши ўқиб, билим олиб, эл корига ярайдиган инсон бўлиш учун қатъият билан ҳаракат қилган, – дейди



лавозимида хизмат қилган полковник Қайнар Қаршибоев бироз ажабланди. У нимадандир ташвишда, кайфияти йўқ эди. Жуда сокин оҳангда гаплашди. Ўзининг ҳайдовчисига жавоб бериб юборди. Генерал шаҳар милицияси бошлиғининг ёнидаги стулга ўтириб: «Қайнар яхши ўтирибсанми? Машинангни миниб чик, бир иккаламиз шаҳар айланайлик», деб кўчага чиқишди. «Сангзор» маҳалласида машинани тўхтатишди. Иккаласи машинадан тушишди. Ёрулла аканинг хонадони томон қолган йўлда пиёда суҳбатлашиб кетишди...

ЯХШИЛИК ДАРАХТИ

Эл севган генерал яхшилик қилишни, шогирдларига тўғри ўғит ва насиҳатлар беришни, халқ билан бирдам, яқдилликда осойишталикни таъминлашни ўзининг асосий вазифаси деб биларди. Унинг юрт осойишталиги йўлида амалга оширган хайрли ишларини фарзандлари ва шогирдлари давом эттирди. Ўғли Неъмат Норбеков узоқ йиллар прокуратура идораларида самарали хизмат қилди. Истеъфодаги подполковник Шавкат Норбеков кўп йиллар мобайнида Тошкент вилояти ички ишлар органларида турли раҳбарлик лавозимларида фаолият юритди. Оддий тезкор вакил лавозимидан Янгийўл тумани ИИБ бошлиғигача бўлган шарафли хизмат йўлини босиб ўтди. Яна бир ўғли Файрат Норбеков ички ишлар органларида хизмат қилиб, подполковник унвонида пенсияга чиқди.

Сулола давомчиларидан яна бири – Неъмат Норбековнинг ўғли, сафдор Отабек Норбеков Жиззах вилояти ИИБ Ташкилий бошқармаси

истеъфодаги подполковник Шавкат Норбеков.

Ёрулла Норбековнинг олижаноблиги, самимийлиги, адолатпарварлигини шогирдлари фахр билан тилга олишади.

Истеъфодаги генерал-майор Аҳмаджон Усмонов, истеъфодаги полковниклар Музравжон Жабборов, Ўктам Маҳмуджонов, Олимжон Қосимов, Ўктам Умаров, истеъфодаги подполковниклар Назарқосим Холбеков, Холмат Исоқов, Тўйчи Йўлчиев, истеъфодаги майор Турғунжон Жумаевлар шулар жумласидандир.

– Генерал хизматда жуда талабчан, аммо меҳр-оқибатли инсон эди, дейди истеъфодаги полковник Музравжон Жабборов. Адолатпарварлигини биз доим сезиб турардик. Ҳар бир ходимнинг қадрига етарди. Дарахт бир жойда кўкаради, деб хизматнинг қадрига етишни уқтирарди.

Генерал-майор Ё. Норбековнинг хотирасини абадийлаштириш мақсадида Жиззах шаҳридаги кўчаларнинг бирига, вилоят ИИБ тасарруфидаги Зомин туманидаги болалар оромгоҳига унинг номи берилган. Ҳар йили Жиззах шаҳрида генерал хотирасига бағишлаб, мотопойга бўйича мусобақа ўтказиш анъанага айланган.

Яхшилар яратган боғ заволи топмаслиги аён гап. Дарҳақиқат Ё. Норбеков Жиззах вилояти ички ишлар органларида асос солган мактаб ҳамон давом этмоқда. У яратган боғнинг ниҳоллари – сон-саноксиз шогирдлар ва отасига олқиш олиб келган фарзандлар аллақачон улкан дарахтларга айланган. Зеро, яхшилик дарахти бардавом ўсаверади.

**Азизжон ФАЙЗИЕВ,
майор.**

«XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT» TAMOYILI ISTIQBOLLARI

2024-yilning 10-yanvar kuni davlat rahbari raisligida bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimiz O'zbekistonning davlat suvereniteti, sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash – tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burch ekanini ta'kidlab, jadid bobolarimizning yurt tinchligi va ravnaqi yo'lida olib borgan faoliyatiga to'xtalarkan, «Tilda, fikrda, ishda – birlik» degan g'oyani ilgari surdi.

Shuningdek, yig'ilishda Qurolli Kuchlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, qo'shinlarning jangovar shayligi va ruhiy tayyorgarligini oshirish, bo'linmalarni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnikalar bilan ta'minlash kabi masalalar sarhisob qilinib, navbatdagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

2023-yilning 13-sentabrida qabul qilingan «O'zbekiston-2030» strategiyasining beshinchi — «Xavfsiz va tinchliksevar davlat» tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo'nalishi doirasida amalga oshiriladigan muhim maqsad va vazifalar, xususan, strategiya orqali istiqbolli yo'nalishlarda hamkorlikni yo'lga qo'yish, keng mintaqalarni bog'lovchi va O'zbekistonning jahon bozoriga chiqishiga imkon yaratuvchi transport-logistika yo'laklarini shakllantirish, Qurolli Kuchlar qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada kengaytirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida tutgan roli va o'rnini oshirish, xalq farovonligi, tinchligi, inson huquqlari kafolatini ta'minlaydigan adolatli davlat qurishda mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish muhimdir. Bu borada «Xavfsiz va tinchliksevar davlat» tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish orqali ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlarni



jadallashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu tamoyil asosida bir qator ustuvor va istiqbolli vazifalarni amalga oshirish orqali mamlakatning ijtimoiy-siyosiy mavqeyini mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadigan omildir. Bu faoliyatda tasdiqlangan quyidagi yo'nalishlar qamrab olingan istiqbol rejalarini amalga oshirishda mas'uliyat va burch bilan yondashuv talab qilinadi. Ya'ni:

- – Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish;
- – Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;

- – an'anaviy sheriklar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish, global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish;
- – tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish,

berilgan bunday baho Prezidentimiz rahbarligida yuritilayotgan tinchliksevar va do'stona tashqi siyosat BMTning asosiy maqsadlari va vazifalari bilan hamohangligi natijasidir.

O'zbekiston quyidagi tamoyillarga asoslangan holda, izchil tashqi siyosatni yuritmoqda: a) hamkorlik qilishda, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar, ochiqlik; b) teng huquqlilik va o'zaro manfaat, suverenitet, hududiy yaxlitlik, chegaralar daxlsizligini hurmat qilish; v) davlatlarning ichki siyosatiga aralashmaslik, munozaralarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch yoki tahdid kuchlarini qo'llamaslik; g) harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik, o'z hududida xorijiy harbiy bazalarning joylashuviga yo'l qo'ymaslik, xorijiy operatsiyalarda ishtirok etmaslik.

Ta'kidlash joizki, 2023-yilning 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada (Muqaddima, 17,18-moddalar) O'zbekistonning jahon hamjamiyati, avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilgan holda qabul qilishga doir alohida band kiritilgan bo'lib, bu ham so'nggi yillarda tashqi siyosatda amalga oshirilgan islohotlarni kelgusida yanada chuqurlashtirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyamiz Muqaddimasi-dagi quyidagi jumlar ham e'tiborga molikdir: «...davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib...ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz...»

Darhaqiqat, Amu va Sirdaryo oralig'ida paydo bo'lgan insoniyat sivilizatsiyasi bu yerda paydo bo'lgan va yashagan xalqlarning qadim tarixidan darak beradi. Bu makonda yaratilgan «Avesto» kitobi esa qadimda nafaqat xalqlar, balki bu yerlarda shahar va davlatlar shakllanganligini isbotladi. Qarangki, bunday makon, bunday insoniyat beshiklari dunyoning hamma yerida ham bo'lgan emas. Bu shonli tarixdan, ajdodlarimizning sharfli ma'naviy merosidan faxrlanishimiz, g'ururlanishimiz bejiz emas.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Bizga bu kuchni chetdan izlashning hojati yo'q. Shonli tariximiz, boy ilmiy va madaniy merosimiz, bahodir ajdodlarimizning hayoti va faoliyati biz uchun chinakam ibrat maktabi».

Xurshid QURBONOV,
Navoiy Davlat pedagogika instituti dotsenti.



- xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish;
- – jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda, Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish;
- – favqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarning oldini olish;
- – chegaralar xavfsizligini mustahkamlash;
- – jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish masalalari shular jumlasidandir.

Bugungi sharoitda mamlakatimizning istiqboli bevosita tashqi siyosat masalasiga bog'liqdir. Yangi O'zbekiston o'z tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish, Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnihilik va strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish hamda Yaqin va O'rta Sharq mintaqasidagi davlatlar bilan aloqalarni kengaytirish orqali samarali olib bormoqda.

BMTda O'zbekistonning qo'shni mamlakatlarga nisbatan yangicha, ochiq va yaxshi qo'shnihilik siyosati ijobiy baholanmoqda. O'zbekistonning yangi mintaqaviy siyosatiga

KASB FIDOYISI

MAS'ULIYAT VA HUSHYORLIK – ASOSIY OMIL

IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti Toshkent shahri aeroportlarida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi HPB xodimlari huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash maqsadida sidqidildan xizmat qilib kelishmoqda.

O'tgan yili bo'linma xodimlari tomonidan ichki ishlar organlariga olib kelingan shaxslarning 838 nafariga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Ko'rilgan tezkor chora-tadbirlar natijasida 36 ta jinoyatning oldi olindi. 3 nafar qidiruvdagi ushlandi, 1 nafar bedarak yo'qolgan shaxs topildi.

Bo'linmada ko'plab kasbiga sadoqatli xodimlar qatorida muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, mayor Husan Olimboyev haqida gap

ketganda, hamkasblari uni ana shunday fidoyi va tajribali xodimlardan biri sifatida hurmat bilan tilga oladi.

Husan Olimboyev ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini poytaxtimizning Mirobod tumani IIOFMB HPB profilaktika inspektori lavozimidan boshlab, keyinchalik boshqa sohaviy xizmatlarda, jumladan, Olmazor tumani IIOFMB EKB katta eksperti sifatida xizmat qilib, yurtimiz osoyishtaligini ta'minlashga munosib hissa qo'shdi.

– Har safar xizmatni boshlar ekanman, mehmonlar bizning xatti-harakatimiz orqali nafaqat ichki ishlar organlari tizimi, balki jonajon O'zbekistonimizga baho berishini o'ylab, yanada mas'uliyatni oshirib xizmat qilishimiz darkor, – deydi mayor Husan Olimboyev. – Bizdan o'zimizning yurish-turishimiz va muomalamiz bilan o'rnak bo'lishdan tashqari, hushyorlik hamda ziyalik talab etiladi.



Husan Olimboyev tug'ilib o'sgan oilani ma'rifatli insonlar oilasi, desak, mubolag'a emas. Lavhamiz qahramonining akasi mayor Anvar Olimboyev Yunusobod tumani IIOFMB Navbatchilik qismi katta navbatchisi lavozimida xizmat qilmoqda. Opasi

Munajat Olimboyeva Muqimiy no-midagi O'zbekiston davlat musiqali teatri aktrisasi, yana bir opasi Fotima Yunusobod tumanidagi 313-maktabda ingliz tili o'qituvchisi.

Sherzod ABDUSAMADOV,
o'z muxbirimiz.

MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

MATONAT MEVASI



Jangchi jaso-ratining yuksak ramzi bo'lgan alvon beretni kiyish huquqi faqatgina tanlanganlarga beriladi. Yaqinda IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Andijon viloyatida joylashgan 7553-harbiy qismda shartnoma asosida xizmat qilayotgan kichik serjant Jamshid Tog'ayev ham ana shunday sharafga munosib ko'rildi.

Lavhamiz qahramoni Buxoro viloyatining Kogon tumanida tavallud topgan. Padari buzrukvo-ri Shavkat aka uzoq yillar Navoiy viloyatidagi 7532-harbiy qismda xizmat qilib, serjant unvonida pensiyaga chiqqan edi. Jamshidning akasi Jasur ham Vatan himoyachisi. U Buxorodagi 7536-harbiy qismda seksiya komandiri. Shu boisdan Jamshid hech ikkilanmasdan harbiylikni tanladi. U ilk xizmat faoliyatini Qarshi shahridagi 7533-harbiy qismda o'qchi lavozimida boshladi.

2022-yilda esa Andijon shahridagi 7553-harbiy qismda xizmatni davom ettirib kelyapti.

O'tgan yili Namangan viloyatidagi 7552-harbiy qismda eng yaxshi jangchilarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan saralash bosqichida boshqa harbiy qismlardan kelgan 11 nafar jangchi qatorida kichik serjant J. Tog'ayev ham ishtirok etdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, ulardan to'rt nafariga, jumladan, hikoyamiz qahramoniga ham tanlovning respublika bosqichiga yo'llanma berildi. Maq-

sad sari qat'iyat bilan intilgan kichik serjant Jamshid g'oliblikni qo'lga kiritib, orzusiga erishdi.

– Alvon beret sohibi jangovar tayyorgarlik ko'nikmalari va tegishli bilimga ega bo'lmog'i lozimdir, – deydi kichik serjant J. Tog'ayev. – Men uchun marsh-yugurish va to'siqlardan oshish mashqi juda qiyin kechdi.

Yana bir sinov – alvon beret sohibi bilan bo'ladigan qo'l jangi bellashuvlari. Agar alvon beret egasi raqibiga yutqazsa, u beretini yo'qotadi va sinovlardan qayta o'tishga to'g'ri keladi. Shu bois, ular o'rtasida jiddiy kurash kechadi.

– Beretni qo'lga kiritgan kunim men uchun haqiqiy shodiyona bo'ldi, – deya tabassum qildi Jamshid. – Ammo bu matonat va sabot ramzini osongina qo'ldan boy berish ham mumkin. Shu sababli uning sohibi doimo o'zini jismonan chiniqtirib bormog'i kerak.

Hozirda seksiya komandiri lavozimida xizmat qilayotgan J. Tog'ayev bilan safdoshlari haqli ravishda faxrlanishadi.

– Jamshid eng yaxshi harbiylardan biri, – deydi qism komandirining o'rinbosari, podpolkovnik Azizbek Yusupov. – U hamisha olg'a intiluvchan va juda dovyurak. Bu esa harbiylarga xos eng muhim xislatlardandir.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Ma'lumot o'rnida

«Alvon beret» kiyish huquqini berish bo'yicha o'tkazilgan imtihonda talabgorlarning bilimlari, jismoniy va jangovar tayyorgarliklari baholandi. Xususan, to'sinda tortilish, 100 va 3 ming metr ga yugurish, qurol va vositalarni samarali qo'llash, maxsus, tibbiy tayyorgarliklari bo'yicha kompleks sinovlar olinadi. Alvon beret kiyish huquqini berish bo'yicha sinovlar ommaviy tartibsizliklar sodir etgan shaxsni qo'lga olish, qurollangan jinoyatchilarga qarshi kurashishda xodimlarning harakatlanish mahoratini va yakka olishuvlarda jangovar malakasini oshirish hamda mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Хорезмская область

В Молодежном центре города Ургенча состоялся областной этап республиканского смотра-конкурса «Образцовый пункт правопорядка махалли».

Выступивший на торжественном открытии мероприятия заместитель начальника областного УВД полковник Жахонгир Саъдуллаев рассказал о мерах по превращению махаллей в территорию, свободную от преступности, формированию у граждан чувства сопричастности к деятельности по укреплению правопорядка, особо подчеркнул роль сотрудников органов внутренних дел, в том числе инспекторов профилактики, в обеспечении общественной безопасности.

По итогам смотра-конкурса победителем областного этапа

стал пункт правопорядка № 5 махалли Боглар Хазараспского района (старший инспектор профилактики подполковник Ойбек Рахимов). Второе место присуждено пункту правопорядка № 17 махалли Навруз Гурленского района (старший инспектор профилактики капитан Элбек Рахимов). Третье место занял пункт правопорядка № 20 махалли Ёшлик Ургенчского района (инспектор профилактики майор Жавлон Каландаров).

Также были определены лучшие в 11 номинациях.

Соб. корр.



Из следственной практики

«МОЖЕТЕ ПРОЙТИ, ТАМ ВАС ЖДУТ...»

Ближе к концу рабочего дня в здание, где располагался филиал банка, зашел мужчина, на вид лет пятидесяти. С той уверенностью, с которой он передвигался по операционному залу, можно было понять, что здесь он не впервой. Получив в инфокиоске номерок, клиент расположился в кресле, ожидая своей очереди. Казалось, что мужчина спокоен, но нервные постукивания по ручке кресла говорили о другом...

Когда подошла очередь, клиент поспешил к стойке, за которой располагался специалист банка. Протянув биометрический паспорт, он попросил закрыть один из валютных вкладов, открытый на его имя, и выдать деньги в срочном порядке. Специалист, набрав в базе личные данные клиента, удостоверился о наличии двух вкладов, общая сумма которых составляла 503 232 доллара США. Мужчина поторапливал, прося быстрее закончить процедуру закрытия одного из вкладов, сумма которого составляла 286 470 долларов. Через несколько минут сотрудник банка произнес: «Подождите недолго, в системе должны пройти операции по закрытию вклада, а в кассе подготовят деньги».

Через определенный промежуток времени клиента пригласили к стойке. Специалист банка, протянув расходный кассовый ор-



дер и биометрический паспорт, сказал: «Можете пройти к кассе, там вас ждут...». На лице мужчины заиграла улыбка. Однако на этом этапе история принимает уже иной оборот.

Когда довольный клиент подошел к кассе, здесь его ожидали сотрудники оперативно-розыскной службы УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района. Процедуру задержания мы пропустим, а вот

о причине, по которой был задержан мужчина, расскажем.

При расследовании преступлений, связанных с подделкой, изготовлением или сбытом поддельных документов и использованием заведомо подложных документов, важнейшее значение имеет заключение эксперта-криминалиста. Зачастую именно вывод криминалиста ставит окончательную точку при принятии решения о возбуждении уголовного дела.

Предоставленный «клиентом», которым оказался 52-летний А. Ф., биометрический паспорт, согласно заключению специалиста ЭКО УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района, имел следы фальсификации. Он принадлежал истинному владельцу вклада, но злоумышленники при помощи цветного принтера пытались подделать документ, для того чтобы в дальнейшем использовать его с целью совершения преступления.

По данному факту СО при УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района г. Ташкента было возбуждено уголовное дело

Соб. корр.



FUQAROLIK PASPORTI VA ID-KARTA

O'zbekiston Respublikasi mulki, uning egasi davlat himoyasida

Keyingi yillarda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida fuqarolarimiz hamda mamlakatimiz hududida yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda fuqarolarga yengilliklar yaratish hamda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida sohadagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun sanksiyalarning darajasini tegishli huquqbuzarlikning ijtimoiy ahamiyati va oqibatlar bilan mutanosib bo'lishini ta'minlash hamda ma'muriy jarimalar miqdorlarini maqbullashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sohadagi ma'muriy huquqbuzarliklar uchun jarima miqdorlarini aniq belgilash va ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda fuqarolarga yengillik yaratishga qaratilgan normalar kiritilmoqda.

Tahririyatimizga mushtariylarimiz tomonidan shaxsni identifikatsiyalovchi ID-karta va u bilan bog'liq turli masalalar bo'yicha savollar kelib tushayotgani bois bu haqda batafsil ma'lumot berishga qaror qildik.

Savollarga IIV Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i, podpolkovnik Ruslan ZABIROV javob berdi:

– Pasport yoki ID-karta qanday hujjat, ular qonunchilikka ko'ra davlat mulki hisoblanadimi yoki fuqaroning shaxsiy mulki?

– O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini hamda fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjatdir. Prezidentimizning 2020-yil 22-sentabrdagi farmoni 1-ilovasi bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartasi to'g'risida»gi nizamning 3-bandida ID-karta O'zbekiston Respublikasi mulki va uning egasi O'zbekiston Respublikasi himoyasida ekanligi belgilangan.

– ID-kartaning afzal jihatlari nimada?

– ID-karta O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini hamda fuqaroning shaxsini tasdiqlash bilan bir qatorda, respublikamizning barcha sohalarda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, shaxslarning doimiy yashash joyi va turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tizimida, mavjud aholi soni statistikasini yuritishda, hududlarning infratuzilmasini shakllantirishda, aholiga pensiya va tibbiy ta'minot, boshqa ijtimoiy kafolatlarning ko'rsatilishida, davlat xizmatlari ko'rsatishni rejalashtirishda, mavjud resurs va mablag'larni to'g'ri taqsimlashda, aholining bandligini ta'minlashda, Qurolli Kuchlarni shakllantirishda, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishda, eng muhimi, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish, davlat xizmatiga kirish, davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish va boshqa huquqlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

– ID-kartaning amal qilish muddati qancha? U kimlarga, necha yoshda beriladi?

– O'zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiyalovchi ID-kartasi ma'lumotlarni yig'ish

punkti tomonidan fuqarolarga quyidagi muddatlarga beriladi:

– 1 yoshgacha bo'lgan yangi tug'ilgan bolaga – ikki yil muddatga (ota-onalar, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko'ra);

– 1 yoshdan 16 yoshgacha – 5 yil muddatga (ota-onalar, vasiylarning (homiylarning) ixtiyoriga ko'ra);

– 16 yoshdan – 10 yil muddatga.

– Hujjatning almashtirish muddati hatto bir necha oy o'tib ketgan fuqarolar ham uchrashi mumkin. O'z vaqtida ID-kartani almashtirgan fuqarolarga nisbatan jarima qo'llanadimi?

– Fuqaro ID-kartasi amal qilish muddati tugaganda va tegishli yoshga to'lgandan so'ng yoki familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili



va millati o'zgargandan so'ng bir oy muddatda ID-karta olish uchun murojaat qilishi lozim. O'z vaqtida murojaat qilinmasa, bu Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 223-moddasi talablariga asosan bazaviy hisoblash miqdorining ikkidandan bir qismidan uch baravarigacha miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

– ID-kartani yo'qotib qo'ygan yoki yaroqsiz holga keltirgan fuqarolarga nisbatan qonunchiligimizda qanday choralar ko'riladi?

– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 223-moddasi talablariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportini yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasini, xorijga chiqish uchun biometrik pasportini qasddan yaroqsizlantirishi yoki uni ehtiyot qilib saqlamagani oqibatida yo'qotib qo'yishi, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxsning harakatlanish hujjatini qasddan yaroqsizlantirishi yoki uni ehtiyot qilib saqlamagani oqibatida yo'qotib qo'yishi, mamlakatimiz hududida doimiy yashovchi chet el fuqarosining va fuqaroligi bo'lmagan shaxsning identifikatsiyalovchi ID-kartasini (O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini) qasddan yaroqsizlantirishi yoki uni ehtiyot qilib saqlamagani oqibatida yo'qotib qo'yishi bazaviy hisoblash miqdorining ikkidandan bir qismidan uch baravarigacha miqdorida jarima solinishiga olib keladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ayni bir huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasini qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash

miqdorining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

– Bu muhim hujjatlarning qanday hollarda yaroqsiz holga kelgan deb hisoblanishi ham mushtariylarimizni qiziqtiradi.

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 5-yanvardagi farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti to'g'risida»gi nizamning 17-bandida fuqaro pasportini ehtiyot qilib saqlashi shartligi belgilangan.

Pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartaning yaroqsizlantirish faktini pasportlarning varaqlarini yirtib tashlangani, pasportga qo'yilgan belgilarining ko'rinmas holatga keltirilgani yoki shaxsning biografik va biometrik ma'lumotlariga qasddan yoxud ehtiyotsizlik oqibatida shikast yetkazilgani va boshqa holatlar tasdiqlaydi.

Hujjatlarni yaroqsizlantirish fakti asosan hujjatlarni ko'zdan kechirish orqali aniqlanadi.

– Ba'zi fuqarolar qayd varag'ini olib yuraganiga ham ko'zimiz tushyapti. Bu qanchalik to'g'ri?

– Davlatimiz rahbarining 2020-yil 22-apreldagi «Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo'yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinishini rasmiylashtirishda pasport, uy daftari yoki xonadon kartochkasiga ro'yxatga olish shtampini bosish amaliyoti bekor qilingan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish bilan bog'liq ishlar idoralararo elektron hamkorlik orqali «yagona darcha» tamoyili asosida Ichki ishlar vazirligining «Manzil» avtomatlashtirilgan axborot tizimi vositasida amalga oshirilmoqda.

Fuqarolarimiz «Manzil» tizimi orqali doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinadi va ularga fuqaroning doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingani to'g'risida QR-CODE bilan himoyalangan qayd varag'i beriladi.

Fuqarolarning qayd varag'ini olib yurishlariga chek qo'yish maqsadida Ichki ishlar vazirligining «Manzil» tizimi «Elektron hukumat» tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasiga integratsiya qilingan. Buning natijasida davlat organlari va tashkilotlari jismoniy shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda va boshqa ma'muriy tartib-tamoyillarni amalga oshirishda fuqarolarning doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingani haqidagi ma'lumotlarni fuqarolardan talab qilmasdan, mazkur platforma orqali mustaqil ravishda so'rab olishi imkoniyati yaratilgan.

– Biometrik pasportni ID-kartaga almashirishning oxirgi muddati qachon?

– Prezidentimizning 2020-yil 22-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida O'zbekiston Respublikasi fuqarosining 2011-yilgi namunadagi biometrik pasporti 2031-yil 1-yanvardan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanishi belgilangan. Demak, fuqarolar biometrik pasportlarini 2030-yil 31-dekabr gacha ID-kartaga almashirishlari lozim.

O'z muxbirimiz Sherzod ABDUSAMADOV yozib oldi.

VATAN HIMOYASI – MUQADDAS BURCH

RUHI TETIKNING IRODASI
MUSTAHKAM BO'LADI

IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlarining Nukus shahridagi alohida batalyoni shaxsiy tarkibining harbiy-kasbiy tayyorgarligini yanada oshirish, shuningdek ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

– Ma'lumki, insonning ruhiy holati va ma'naviy-ma'rifiy yetukligi uning faoliyati samaradorligini ta'minlaydigan muhim mezonlardandir. Shunday ekan, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini yaxshilash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jamoada sog'lom muhitni yanada mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sababi, o'z millati, yurtining tarixini bilgan, ma'naviyati yuksak xodimning vatanparvarlik tuyg'usi, sadoqat hissi ham yuqori bo'lishi shubhasiz.

O'zida 2 mingdan ortiq kitobni jamlagan kutubxona harbiy xizmatchilar ixtiyorida. Ushbu ziyo maskanidagi milliy va jahon adabiyoti

durdonalari Vatan himoyachilarining ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, har chora harbiy qismda kitob yarmarkasi o'tkazilib turiladi.

Shaxsiy tarkibning dam olish kunlarini mazmunli o'tkazish maqsadida teatr, muzey va tarixiy maskanlarga ekskursiyalar tashkil etilmoqda. O'tgan yili Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida «Yilning eng yaxshi yoshlar yetakchisi» ko'rik-tanlovi o'tkazilgan edi. Unda Yoshlar ittifoqining harbiy qismdagi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi, kapitan Abbas Beknazarov faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.



– O'tgan yili Ichki ishlar, Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya, DXX Chegara qo'shinlari yosh harbiy xizmatchilari va xodimlari o'rtasida «Ajdodlar izidan» intellektual o'yini o'tkazildi. Unda bizning jamoamiz ikkinchi o'rinni egallari, – deydi harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Omonkeldi Salimov.

Kezi kelganda yosh Vatan himoyachilariga xizmatga moslashishiga har tomonlama ko'maklashish masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganini ham ta'kidlash joiz. Shu maqsadda «Intellektual haftalik» loyihasi bo'yicha Qo'shin qo'mondonligi katta ofitser-psixologi, mayor B.Muradqobilov hamda yoshlar bilan ishlash guruhi katta ofitseri, mayor D. Rajabov harbiy qismda bo'lib, yosh harbiy xizmatchilarni axlo-

qiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash, ularning psixologik portetini shakllantirish, ruhiy holatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olish maqsadida ularni psixodiagnostikadan o'tkazishdi.

Bundan tashqari, harbiy qism shaxsiy tarkibi turli xayriya tadbirlarini tashkil etishga ham munosib hissa qo'shib kelmoqda. Xususan, yaqinda shahardagi «Ko'k uzak», «Qumbiz avul», «Yosh avlod» makon fuqarolar yig'inlarida yashovchi el osoyishtaligini ta'minlash yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, xizmat burchini bajarish chog'ida nogiron bo'lib qolgan harbiylar, shuningdek, kam ta'minlangan oilalar hamda nogironligi bo'lgan insonlar holidan xabar olindi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



FIDOYI HAMKASBLARIMIZ

VAQTIDA KO'RSATILGAN YORDAM

Ertalab xizmatga kirishgan Qarshi tumani IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Baxtiyor Akbarov To'qmang'it qishlog'i hududidan o'tgan «Qarshi – Muborak» yo'li chekkasida yotgan ayol kishiga ko'zi tushdi. Tezda yoniga bordi. Qarasaki, behush. Yonida xarid qilgan bozorliklari ham turibdi.



Vaziyatni to'g'ri baholagan profilaktika inspektori darhol «Tez yordam»ga qo'ng'iroq qildi. Ko'p o'tmay yetib kelgan shifokorlar ayolga birinchi tibbiy yordam ko'rsatib, uni shifoxonaga olib ketishdi.

Shifokorlarga hamrohlik qilgan profilaktika inspektori ayolning shaxsiga aniqlik kiritdi. Ma'lum bo'lishicha, u Qamashi tumanida yashovchi Z.T. ekan. Qolaversa, fuqaroda autizm kasalligi borligi aniqlanib, u shifoxonaga davolanish uchun yotqizildi va profilaktika inspektori tomonidan yaqinlariga xabar berildi.

Qarshi tumanidagi «Bog'obod» mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli Parg'uza qishlog'iga xizmat ko'rsatib kelayotgan pro-



filaktika inspektori, katta leytenant Baxtiyor Akbarov 2018-yildan buyon ichki ishlar organlarida xizmat qilmoqda. Xizmat hududi Qarshi shahriga tutashib ketgan bo'lib, qishloqda 6 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Jinoyachilikning oldini

olish va huquqbuzarliklarga barham berish borasida profilaktika inspektori faollar bilan hamkorlikda bir qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.



Урок духовности и просвещения

ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИНЦИПА «БЕЗОПАСНОЕ И МИРОЛЮБИВОЕ ГОСУДАРСТВО»

Узбекистан – безопасное и миролюбивое государство в Центральной Азии, которое известно своей красивой природой, богатой культурой и древней историей.

Согласно внешнеполитической концепции и оборонной доктрине, Узбекистан не вступает ни в какие военные блоки, не участвует в них. Присутствие военных баз других государств в республике не допускается, как и военные базы страны не могут находиться на территории других государств.

Принятие Стратегии «Узбекистан-2030» стало одним из важных исторических событий. В ней отражены сто целей по пяти приоритетным направлениям.

По пятому приоритетному направлению Стратегии – обеспечению превращения страны в безопасное и миролюбивое государство предусмотрено 11 целей. Это означает, что и в дальнейшем будет продолжена внешняя политика по созданию вокруг страны пояса мира и стабильности.

Руководство страны уделяет большое внимание безопасности граждан и туристов. Также существует высокий уровень межнационального согласия. Разные этнические группы и конфессии живут в мире и гармонии. Государство уважает права каждого человека на свободу вероисповедания и выражение своих мнений.

Туристы, посещающие нашу страну, могут чувство-

вать себя в безопасности, благодаря множеству мер, принимаемых для обеспечения мира и спокойствия. В стране действуют законы, которые гарантируют безопасность.

Начиная с 2017 года в дипломатии Узбекистана открылась качественно новая страница. Деятельность государства на мировой арене вышла на новый этап. При этом основное внимание уделяется сотрудничеству с близкими соседями



– странами Центральной Азии, в том числе в вопросах пользования водно-энергетическими ресурсами и транспортными коммуникациями, делимитации государственных границ, перехода через пограничные пункты.

Согласно выбранному новому направлению внешней политики Президент Узбекистана в течение последних семи лет ведет с руководителями государств Центральной Азии конструктивный диалог, по совместному решению актуальных вопросов, касающихся региональной безопасности, мира и спокойствия, устойчивого экономического развития. По инициативе главы нашего государства осуществлены взаимные визиты лидеров стран региона на высоком уровне. Их политический диалог получил постоянный статус. В ходе этого процесса приняты важнейшие совместные решения по

региональным и международным вопросам в сферах безопасности, экономики, инвестиций, туризма, культуры, здравоохранения и экологии.

Активная и конструктивная региональная политика руководства Уз-

бекистана широко поддерживается. Данный фактор способствует дальнейшему расширению и углублению взаимовыгодных торгово-экономических отношений.

Узбекистан ведет прагматичную и глубоко продуманную политику, так что усиление отношений добрососедства и стратегического партнерства со всеми государствами Центральной Азии и дальнего зарубежья и впредь останется основной целью. В центре



внимания восстановление мирной и спокойной жизни в Афганистане, недопущение экономического и гуманитарного кризиса в этой стране. Тем более что наше добрососедство имеет древнюю историю. Неслучайно у наших наро-

дов есть пословица «Сосед спокоен – спокоен и ты».

В этом плане Узбекистан заинтересован в реализации крупных транспортно-коммуникационных проектов совместно с Афганистаном, что обеспечит странам Центральной Азии

выход к портам Индийского океана. Президент Шавкат Мирзиёев, выдвинув идеи – найти решение региональных проблем, объединиться вокруг общечеловеческих интересов, которые предусматривают в межгосударственных отношениях взаимное уважение, твердую веру, вывел на мировую арену проблему Афганистана как проблему всего Азиатского континента и в целом как общечеловеческий вопрос. Глава нашего государства в выступлении на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН подчеркнул: «Нам нужен мирный и стабильный Афганистан, который участвует в процессах регионального сотрудничества и открыт для взаимовыгодного партнерства со своими соседями и другими странами».

Узбекистан – страна, уважающая взаимное понимание, созидательный процесс. В результате открытой и дружественной внешней политики в последние годы сформированы совершенно новые политические, экономические и культурные отношения с зарубежными странами. Узбекистан провел встречи высокого уровня таких организаций, как ШОС и Организация тюркских государств, ряд других международных форумов, продвигая инициативы, направленные на укрепление стабильности, мира и дружбы во всем мире.

**Сирожиддин
ДЖУРАБАЕВ.**



AYOL VA JAMIYAT

XOTIN-QIZLAR HIMOYADA

Hazorasp tumanida xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Bunda tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan Anaposhsha Qurbonovning hamkor tashkilotlar hamda keng jamoatchilik bilan hamjihatligi ijobiy natijalar bermoqda.

– Joriy yil boshidan buyon profilaktik hisobga olingan 14 nafar xotin-qiz bilan manzilli ishlar amalga oshirilyapti,

– deydi kapitan A.Qurbonova. – Shuningdek, yuzaga kelgan nizolar bar-taraf etilib, 9 ta oila yarashtirildi. Tazyiq



va zo'ravonlikka uchragan 16 nafar xotin-qizga himoya orderi berilib, ular davlat himoyasiga olindi. Hamkorlikda amalga oshirilayotgan bu kabi tadbirlar oilalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda muhim o'rin tutyapti.

...Sotimboy hech qayerda ishlamasdan, ichkilikka berildi va oilasiga, farzandlari tarbiyasiga qaramay qo'ydi. Zulayho erining insofga kelishini, oila a'zolari bilan tinch-totuv yashashini uzoq kutdi. Ammo uning bu orzusi sarobligicha qolaverdi.

Ana shunday kunlarning birida Sotimboy yana uyiga mast holda kirib keldi va arzimagan bahona bilan xotinini kaltakladi. Erining zo'ravonliklaridan charchagan ayol farzandlarini olib otasinikiga ketib qoldi. Bu Sotimboyga qo'l keldi va ichkilikni davom ettirdi. Bundan xabar topgan qarindosh-urug'lar, mahalla faollari er-xotinga oila muqaddasligini uqtirishdi, nasihat qilishdi. Ammo jabr-sitamlanga chidolmagan Zulayho yarashishni istamadi. Shundan so'ng bu kelishmovchilikka kapitan Anaposhsha Qurbonova va mahalla profilaktika inspektori aralashdi, ularga har ikkala

tomonning huquq va majburiyatlari, ajrimning salbiy oqibatlari tushuntirildi. Shu orada Sotimboy davolanish muassasasiga yotqizildi. Oradan biroz muddat o'tgach, ishga joylashtirildi. Hamkorlikdagi sa'y-harakatlar yordamida oiladagi salbiy muhit ijobiy tomonga o'zgardi va er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik barham topdi.

Tuman hududida istiqomat qilayotgan kam ta'minlangan, yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan hamda nogironligi bo'lgan ayollarning turmush sharoitini yaxshilash ham doimiy diqqat markazida. Ularga hokimlik, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan yordam ko'rsatish ishlari davom etyapti. Bu kabi profilaktik tadbirlar ayollarning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash hamda faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Suratda: kapitan Anaposhsha Qurbonova xizmat paytida.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

XOMTAMA BO'LGAN AKA-UKA

Shayxontohur tumani IIOFMB Tezkor qidiruv xizmati JQB boshlig'i, mayor Nuriddin Toshkenboyev poytaxtda tug'ilib voyaga yetdi. Ota-onasi unga yoshligidan halol bo'lishni, bironing haqqini yemaslikni uqtirib kelgan. Farzandining kamoloti va oilaning farovonligi aynan luqmaning halolligiga bog'liqligini bot-bot takrorlashardi. Bu o'g'itlar qulog'iga va ongg-u shuuriga singgan qahramonimizning keyingi hayoti va faoliyati ham halollik poydevoriga qurilib, davom etib kelmoqda.



2009-yilda ichki ishlar organlaridagi dastlabki xizmatini boshlagan lavhamiz qahramoni faoliyati davomida ko'plab qonunbuzarlar bilan ro'baro' kelgan. Lekin u jinoyat ko'chasiga kirganlarga murosasiz bo'ldi. Xuddi shunday, yaqinda giyohvandlik moddasi savdosi bilan

shug'ullanib kelayotgan aka P.J. va uka Sh.J. haqida ma'lumot olgan N.Toshkenboyev hamkasblari bilan gumonlanuvchilarni qo'lga olishda ishtirok etdi.

Ularning yashash xonadoni tekshirib ko'rilganda, 20 dona «Tropikamid» nomli dori vositasining bo'sh

shishachasi, 3 dona elektron tarozi, ko'p miqdordagi kichik hajmli magnitlar, 1 dona 1,5 litrlik yelim idish, 2 dona shaffof rangli polietilen paketdagi o'tkir hidli noma'lum modda hamda giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish uchun maxsus tayyorlangan moslamalar mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, xonadonning balkonidagi so'ri ostiga yashirib qo'yilgan jami 40 dona jigar-rang, o'tkir hidli moddalar mavjudligi aniqlanib, xolislar ishtirokida ashyoviy dalil tariqasida rasmiylashtirib olindi.

Muqaddam sodir qilgan jinoyati uchun hozirgi kunda uy qamog'ida bo'lgan va boz ustiga mazkur qilmishi uchun panjara ortidan joy olishini anglagan P.J. mayorga unga nisbatan qonuniy chora ko'rmaslik evaziga 4000 AQSH dollari miqdorida pul taklif qiladi.

Maxsus tadbir davomida P.J. mayor N. Toshkenboyevga 2800 AQSH dollari va 2 million 400 ming so'm pulni berayotgan vaqtida ashyoviy dalil bilan ushlendi.

Endi bir jinoyati ikkita aylangan aka va uning sherigi bo'lgan uka qonun oldida javob berishiga to'g'ri keladi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

SPORTNI SEV, SPORT BILAN YASHA!

RAQIBLARINI LOL QOLDIRGAN JAMOA

Ichki ishlar vazirligi tarkibiy tuzilmalari shaxsiy tarkibi o'rtasida sportning minifutbol turi bo'yicha IIV birinchiligi bo'lib o'tdi.



Unda sohaviy xizmatlardan tashkil topgan 20 ta jamoa g'oliblik uchun o'zaro kurash olib bordi. Ushbu turnirning final bosqichi poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi «O'zbekiston» sport majmuasida o'tkazildi.

O'zining yaqqol ustunligini namoyish etgan IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlari qo'mondonligi jamoasi musobaqaning oltin medallariga munosib ko'rildi. Vazirlik Moli-

ya va moddiy-texnika ta'minoti departamenti jamoasi kumush medalga, IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti jamoasi bronza medaliga loyiq topildi.

Shuningdek, «Eng yaxshi o'yinchi», «Eng yaxshi hujumchi», «Eng yaxshi himoyachi», «Eng yaxshi darvozabon» nominatsiyalari bo'yicha g'oliblarga ham mukofotlar topshirildi.

Ozodbek NASIMOV,
podpolkovnik.



INSON QADRI – ULUG'

MEHR QOLUR, OQIBAT QOLUR...

YAXSHILIKNING JAVOBI FAQAT YAXSHILIK

Xalqimizda «Keksalari e'zozlangan yurtning kelajagi porloq bo'ladi», – degan naql bejizga aytilmagan. Binobarin, Navoiy viloyati ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan havo harorati keskin pasaygan ayni kunlarda «Mehr» tadbiri tashkil etilganligi ham yurtimizda keksalarga e'tiborning, inson qadri nechog'lik ulug'ligining ifodasidir.

Tadbirning dastlabki manzili Karmana tumani bo'ldi. Tumanning «Qahramon» mahallasida istiqomat qilayotgan Matluba Xoliqova ko'p yillar hamshira sifatida insonlar dardiga darmon bo'ldi. Shu sohadan pensiyaga chiqdi. Yaqinda viloyat IIB HPB mas'ullari va tuman sog'liqni saqlash bo'limi xodimlari bilan birgalikda opaning holidan xabar olindi.

Alisher Navoiy nomli mahallada yashovchi Guljahon Abdullayeva turmush o'rtog'ining vafoti va qizining uzoq viloyatga turmushga chiqib ketishi sababli yolg'iz qolgan

edi. Kutilmagan yo'qlovdan ko'ngli ko'tarilgan Guljahon opa mehmonlar bilan dildan suhbatlashdi.

Shu mahallada yolg'iz yashovchi 84 yoshli Muhabbat Jumayevaning uch o'g'li xizmat zarurati bilan chet ellarda. Ishchi guruh vakillari qon bosimi ko'tarilib turadigan ayaga dori-darmon va kerakli mahsulotlar berishdi. Mutasaddilar shu kuni tumandagi Salomat Jumanazarovning ham xolidan xabar olib qaytishdi.

Tadbirning ikkinchi kuni Konimex tumanida yolg'iz yashaydigan 74 yoshli Salomat



Boboyeva hamda 54 yoshli Lazzat Jalilovning xonadonlarida bo'lishdi. Ularning turli ijtimoiy, moddiy, tibbiy muammolarini hal etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Bir so'z bilan aytganda, «Mehr» profilaktik tadbiri

davomida yakka-yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan, ehtiyojmand insonlarga saxovat ko'rsatilib, o'ksik ko'ngillarga mehr ulashildi. Siz ham yon-atrofigizda istiqomat qilayotgan keksalar holidan xabar oling, imkoniyatingiz

darajasida ularga yordam bering, ko'ngillarini ko'taring. Muhtojlardan ko'magingizni ayamang. Zero, yaxshilikning javobi faqat yaxshilikdir.

Mahliyo MIRZAYEVA,
podpolkovnik.
Navoiy viloyati.

KECHA VA BUGUN



KASB FIDOYISI

SINCHKOVLIGI ISH BERDI

Toshkent shahrida qurilish tashkilotida ishlab yurgan F.R. sodir etgan firibgarlik jinoyati uchun qidiruvga berilgan edi. Ammo u jazodan qutulib qolishni o'ylab o'zi tug'ilib o'sgan Xo'jayli tumaniga qochib kelib, izini yo'qotmoqchi bo'ldi.



Uyda bekor yotish qiyin ekan. Oradan besh-olti kun o'tib, uyida zerikkanidan bozorga aylanishga chiqqan F.R. hududda xizmat faoliyatini olib borayotgan ichki ishlar organi xodimining sinchkov nazaridan qochaman deb xatoga yo'l qo'rganini tushunganida kech bo'lgandi. Chunki katta serjant Baxram Sagidullayev uning yashirinishga urinayotganini payqab qolgandi. Shu bois undan tekshirib ko'rish uchun hujjatlarini so'raydi. Natijada uning qidiruvdagi shaxs ekani ma'lum bo'lib, qo'lga olinadi.

B.Sagidullayev 1978-yili Xo'jayli tumanida tug'ilgan. Muddatli harbiy xizmatni o'tab kelganidan so'ng 1999-yili ichki ishlar organlaridagi ilk

xizmat faoliyatini Nukus shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limida safdor xodim sifatida boshlaydi. 2005-yili vazirlik patrul-post xizmatiga o'tkazilib, hozirgi kunda ushbu xizmatda katta serjant unvonida xizmat qilmoqda.

Katta serjant Baxram Sagidullayev o'tgan xizmat faoliyati davomida tinchlik-osoyishtalikni asrash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashishga munosib hissa qo'shib, hamkasblariga namuna bo'lib kelmoqda. Birgina o'tgan yili u shaxsan 3 ta jinoyatni fosh etishga muvaffaq bo'ldi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Служба миграции и оформления гражданства

Самаркандская область

Сотрудники отделения миграции и оформления гражданства Тайлякского районного ОВД выполняют большой объем работы, требующий от них точности и внимательности.

Оформление и выдача ID-карт, загранпаспортов, регистрационный учет иностранных граждан – далеко не весь перечень услуг, предоставляемый сотрудниками. Ежедневно в отделение обращаются свыше 300 человек.

Минувший год стал продуктивным для сотрудников отделения. Ими было выдано свыше 16 тысяч ID-карт. В основном обращались жители, у которых истек срок действия биометрических паспортов. Более 12,7 тыс. заявите-



лям оформлены загранпаспорта.

Сотрудники подразделения совместно с инспекторами профилактики контролируют соблюдение населением правил паспортной системы. В махаллях, на предприятиях и в учреждениях ведется работа по разъяснению установленных правил.

В центре внимания рассмотрение дел лиц, не имеющих гражданства. В 2023 году были собраны документы семи жителей района, желающих получить гражданство. Ожидается, что в скором времени их вопрос будет решен.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

Противодействие незаконному обороту наркотиков

ЗАДЕРЖАНЫ С ПОЛИЧНЫМ

В Бухарской области совместными усилиями правоохранительных органов и общественности в рамках борьбы с незаконным оборотом наркотических средств проводятся целенаправленные профилактические и оперативные мероприятия.

В частности, в результате оперативного мероприятия, проведенного областным УВД и прокуратурой Пешкунского района, в доме жителя махалли Навбахор Х. Б., 1978 года рождения, было обнаружено 15,14 грамма наркотического вещества. Также сотрудниками Гиждуванского районного ОВД установлено, что Ю. Р., 1969 года рождения, из махалли Дегрезон Гиждуванского района, вместе со знакомым Х. М. регулярно употребляли наркотические средства. Более того, превратили дом в притон для «любителей» марихуаны и гашиша.

Житель махалли Вобкент одноименного района выращивал



в подворье наркосодержащее растение каннабис. Данный факт установлен сотрудниками районного ОВД и таможни во время контрольной проверки.

Г. Ж. и С. И. из махалли имени Амира Темура города Кагана по предварительному сговору пытались продать 20,69 грамма марихуаны, упакованной в спичечный коробок. Благодаря оперативным действиям сотрудников областного УВД и Каганского городского ОВД злоумышленники были задержаны с поличным.

В результате оперативного мероприятия, проведенного сотрудниками Бухарского городского

управления по координации деятельности органов внутренних дел, при попытке реализации 6,09 грамма марихуаны задержан У. К., проживающий по улице Мирдустим. Аналогичное преступление предотвращено во время очередного оперативного мероприятия сотрудниками Гиждуванского РОВД. Оперативники задержали некоего Ш. А. из махалли Памуза во время продажи 0,59 грамма марихуаны.

По оперативной информации, поступившей в Караулбазарский РОВД, был остановлен и проверен автомобиль «Дамас». Подозрения оказались обоснованными.

У пассажира, Х. Н., проживающего в городе Бухаре, обнаружено 62,39 грамма марихуаны, упакованной в спичечные коробки, завернутые в целлофановый пакет. В ходе оперативного мероприятия, проведенного областным УВД 16 января, также был задержан житель города Бухары, К. С., 2000 года рождения, который пытался сбыть 1,33 грамма марихуаны.

По приведенным фактам возбуждены уголовные дела, ведется следствие.

Шухрат ЖАЛОЛОВ,
подполковник.

Бухарская область.



MULOHAZA

Buyuk mutafakkir Navoiy bobomizning «Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmiş ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila», degan misralarini doim ustozlarning mashaqqatli mehnatiga berilgan eng yaxshi ta'rif sifatida tilga olamiz. Ammo bugun ko'cha-ko'yda ayrim mahsulot va xizmatlar haqidagi e'lonlar, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda g'ujg'on o'ynagan ayrim yozishmalardagi «savodxonlik»ni ko'rib, ustozlarning hijjalab harf o'rgatib chekkan ranji havoga uchgan ekan-da, degan fikr uyg'onadi.

ESKIRMAYDIGAN MAVZU

IMLODAGI XATOLAR «SURUNKALI DARD»GA AYLANMASIN

Oramizda xat-savod masalasi-da qayg'urib, bu mavzuni doimiy diqqat markazida ushlab turish va xato-kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik haqida bong urayotgan ziyolilarimiz ham bor. Afsuski, bu bilan kutilgan maqsadga erishib bo'lmayotganini tan olishimiz kerak. Aks holda, bu taxlit xatolar tez-tez oyog'imiz ostidan chiqib kelavermasdi...

Yaqinda poytaxtimizning markaziy ko'chalaridan birida joylashgan bekatdagi yengil yemakxonada «olib ketishga qahva» degan yozuv e'tiborimni tortdi. So'z ustalari ta'kidlaganidek, o'zbek tilidagi so'zlar juda serma'no-da. Ayniqsa, «olib ketish uchun qahva»mi yo «olib ketish uchun qahva»mi degan jummalarni o'qib, bosh qotganda...

Xo'sh, ayting-chi, savodsizlikning bu ko'rinishidan kulish kerakmi yoki kuyishmi?..

Hozirgi lotin yozuvidagi alifbomizda ayrim murakkab belgilar, chalkashlig-u noqulayliklar mavjud. Bu borada tilshunolar izlanishlar olib borishmoqda. Ya'ni, alifbo keng ommalashib, turli noqulayliklar bartaraf etilmoqda. Biroq jamoat joylaridagi e'lonlar, xizmatlar yoki bo'lmasa peshtaxtadagi



YOXUD Ivlaring yaxwimi 13:28 ✓

Yaxwi 13:28

Qerdasan, bratiw 13:28 ✓

Waxarda k64adama

Qa4on k6

ke4ka



ara-lash til-u turli alifboda-gi yozuvlar savodsizlik va e'tiborsizlik «mevasi» ekanligi ochiq va achchiq haqiqatdir.

Bugun «Ильос акам индамадила» yoki «Ilk bora ustozlar bayramini nishonlavoma» singari savodxonlikning oddiy «namuna»larini ijtimoiy tarmoqlarda axtarishning hojati yo'q. Kompyuter yoki telefoningizdan ijtimoiy tarmoqqa kirsangiz bas, yomg'irdan keyingi qo'ziqorindek, o'zi yog'ilib kelavradi. Ammo bu borada muammoning o'yantiradigan ancha

jiddiygina jihatlarini unutmasligimiz kerak. Masalan: kelinchakning «Ильос акам индамадила», degan javobidan hatto turmush o'rtog'ining ismini to'g'ri yozishni bilmasligini, «Ilk bora ustozlar bayramini nishonlavoma», deya sahifasida dona-dona harflar bilan qanday so'zlasa, shunday izoh qoldirish asnosida kayfiyat ulashuvchi yosh o'qituvchining o'ziga ustoz kerakligini anglash qiyin emas. Bu ayolning ona sifatida farzand, pedagog sifatida yoshlarni tarbiyalashini o'ylab ko'rish esa alohida yana bir muhim mavzudir.

To'g'ri, shoshilganda, ba'zan charchoq tufayli yozuvda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yish ko'pchilikda kuzatiladigan holat. Biroq bugun ba'zilarining til, imlo borasidagi shuncha-ki e'tiborsizligi ortidan yuzaga kelayotgan ko'rinishlarga jiddiy qarashimiz kerak, toki bu «surunkali dard»ga aylanib ketmasin...

Har bir insonning bilimi, salohiyati uning mutasil harakatlari ortidan shakllanadi. U huquqiyimi, tibbiyimi, ma'naviyimi, bundan qat'i nazar, savodxonlikda shaxsiylik bor. Shunday ekan, ko'cha-ko'yda bu borada ko'zimiz tushgan xatolarning muallifini izlashdan avval, bir shaxs sifatida o'zim bu borada qanchalik saviyaliman, degan o'yda mushohada qilishimiz kerak. Bizning maqsadimiz ham aynan kimlarningdir aybini ko'rsatish, tilidan «ilintirish» emas, balki til, imlo borasida savodxonlikka e'tiborli bo'lish, o'zimizni o'zimiz isloh qilishga undashdan iborat. Shundagina «Илѝс» ismi «Ильос»ga, «olib ketish» jumlasini «olib ketish»ga aylantiradigan ancha

Gulnoza TURG'UNBOYEVA, o'z muxbirimiz.

JADIDLAR MEROSIDAN

MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV

Adib, muharrir, ma'rifatparvar va jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li 1878-yilda Toshkent shahrining Shayx Xovand Tohur dahasi Darxon mahallasida mudarris oilasida tug'ilgan.



XIX asrning oxiridan boshlab jadidchilik harakatlarida faol ishtirok etgan Munavvar qori 1901-yilda o'z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida jadid maktablarini ochadi. Bu maktablar uchun darsliklar yaratadi, qo'llanmalar tuzib, nashr etadi. Bolalar uchun qator she'riy va nasriy hikoyalar yozadi.

U 1909-yili Toshkentda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tuzadi va «Turon» nomli jamiyatni ochadi. 1906-yilda dastlabki o'zbek matbuoti namunalaridan biri bo'lgan «Xurshid» gazetasini nashr etgan adib keyinchalik «Najot», «Kengash» gazetalarida bosh muharrir, «Sadoyi Turkiston»da esa bo'lim muharriri bo'lib xizmat qiladi.

1918-yilning aprelda Turkiston xalq dorilfununining asoschisi bo'lgan Munavvar qori Abdurashidxonov uning rektori etib saylanadi. Uning sa'y-harakati bilan 1918-yilda dorilmuallimin va «Turk o'chog'i» ilmiy-ma'rifiy jamiyati tashkil qilinadi.

Munavvar qori 20-yillarda o'zbek yurtining mustaqilligi uchun kurash vazifasini o'z oldiga qo'ygan «Milliy ittihad» va «Milliy istiqlol» yashirin tashkilotlariga rahbarlik qilgan.

20-yillarning o'rtalarida milliy ziyolilarni ta'qib qilish kuchayishi natijasida Munavvar qori hamma lavozimlardan chetlashtiriladi. Biroq hatto qatag'on ham Munavvar qori Abdurashidxonovni istiqlol g'oyalaridan qaytara olmadi.

U 1929-yilda qamoqqa olinadi va 1931-yilda otib o'ldiriladi. Uning xoki Moskvadagi Vagankovo qabristonidadir.

ILM

Ilm – bilmagan narsalarini bilganlardan o'rganmoqdir.

Odam bolasi tug'ilgan zamonda hech narsani bilmas. Hattoki so'zlamog, yozmog, yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirmak kabi eng kerakli narsalardan mahrumlik holda dunyoga kelur. So'ngra oz-oz o'rganmog ila har narsani bilur.

Otalarimiz, onalarimiz, ulug'larimiz va muallim afandilarimiz ushbu bilgan narsalarimizni o'rgatmagan bo'lsalar edi, hozirda biz ham hech narsani bilmas eduk. Shuning uchun odam bolalariga ziyoda lozim bo'lgan narsa – bilmaganlarini bilganlardan so'rab va o'qub o'rganmak, ya'ni ilm degan aziz va foydali narsani qo'lga olmak uchun harakat qilmoqdir.

Ilm – odamning zehni ochar, aqlini orttirar, bilmagan narsalarini bildirur, dunyoda baxtli va izzatli qilur. Oxiratda saodatli va sharofatli qilur.

Bayt:

Ilmdur dunyoda eng yaxshi hunar,
Ilmsizdan yaxshidur gung ila kar.

Har kishi ilm-la bo'lsa oshno,
Izzat-u davlatda bo'lg'ay doimo.

Ilmsiz odam zalil-u xor o'lur,
Ilmsizlardan hamma bezor o'lur.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

SOHA BILIMDONI

Katta leytenant Ahmatillo Olimov axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan, media soha sir-asrorlarini puxta o'rgangan yosh, izlanuvchan xodimlardan biri. U oliy ta'lim muassasasini tamomlagach, to'rt yil Farg'ona viloyati teleradiokompaniyasida ishlab, telejurnalistika va montaj sirlarini o'rgandi. Hozirda viloyat IIB Axborot xizmatida katta mutaxassis lavozimida faoliyat olib bormoqda.

– Ahmatillo bir oyda ellikka yaqin lavha va videoroliklarni yuqori sifatda montaj qiladi, – deydi viloyat IIB Axborot xizmati rahbari, kapitan Ismoiljon Sharipov. – Bolalarning huquqiy savodxonligini oshiradigan va ogohlikka chorlaydigan animatsion filmlar tayyorlashda ham yaxshigina tajribasi bor. Yangicha yondashuvlari esa tayyorlanayotgan lavhalarimiz sifatini oshirib, tomoshabinlarning e'tirofiga sazovor bo'lmoqda.

Farg'ona viloyati IIBda zamonaviy media markaz va uning qoshida alohida studiya tashkil etilgan.

– Media markazning ochilishi faoliyatimizda ko'plab qulayliklar yaratdi, – deydi katta leytenant Ahmatillo Olimov. – Ilgari asosiy vaqtimizni telekanal va radio

studiyalariga qatnash bilan o'tkazardik. Hozir esa media markazda turib har qanday ko'rsatuv, davra suhbat, intervyu, videomurojaatlar va sohaga oid axborotlarni tasvirga olib, montaj qilib, tayyor holatga keltiryapmiz.

Mutaxassisning aytishicha, yangi media markazda ichki ishlar organlari faoliyatiga oid yangiliklarni, xabar va voqealarni xalqimizga tezkor va xolisona yetkazish imkoniyati tubdan yaxshilandi. Natijada viloyatdagi boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning axborot xizmatlari bilan hamkorlikda yangi «Vaziyat-24» nomli maxsus ko'rsatuv tayyorlanib, haftada bir marotaba viloyat televideniyesi va rasmiy kanallarda efirga uzatilmoqda. Kunlik axborotlar tayyorlash



hajmi va sifati ham avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada yaxshilandi.

Qahramonimizning turmush o'rtog'i Mukarramxon Olimova ham jurnalist. Viloyat televideniye-

sida muharrir bo'lib faoliyat ko'rsatadi. Ular ahillikda 2 nafar farzandni kamolga yetkazishmoqda.

Abdusosiddin SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

DOLZARB MAVZU

MUAMMOGA YECHIM IZLAB...

Yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasida ko'rilgan tezkor profilaktik tadbirlar natijasida Namangan viloyatida o'tgan yili yo'l-transport hodisalari soni avvalgi yilning mos davriga nisbatan 6,2 foizga, jumladan, o'lim bilan bog'liq holatlar 23,4 foizga kamayishiga erishildi. Biroq avtohalokatlar asosan ertalab va kechqurun, odamlar ishga ketayotgan va ishdan qaytayotganida sodir bo'layotgani ham bor gap.

olib boryapmiz. Jumladan, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, harakat ishtirokchilariga qulay sharoit yaratish maqsadida yangi yo'l belgilari, svetoforlar o'rnatilyapti, yangi piyodalar o'tish joylari tashkil etilmoqda. Haydovchi va piyodalarning yo'llarda

harakatlanish madaniyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini o'tkazish ham doimiy e'tiborimizda.

Yo'llarda tirbandliklarning oldini olish, haydovchilarga qulaylik yaratish maqsadida viloyat IIB YHXB tomonidan viloyat hokimligiga qator takliflar kiritildi. Chunonchi, Namangan shahrining «Qo'qon» va «G'alcha» ko'chalari kesishmasi o'rnida aylanma harakatni joriy etish taklifi ilgari surildi. Qolaversa, shu kabi aylanma yo'llarni «Uychi», Mashrab, Navoiy ko'chalarida hamda «Marg'ilon» va Navoiy ko'chalari kesishgan chorrahalar o'rnida ham tashkil

etishni ko'zda tutganmiz. Qolaversa, To'raqo'rg'on tumani hududidan o'tgan 4R-120 avtomobil yo'li kesishgan chorraha o'rnida aylanma harakat yo'lini bunyod etish tirbandlik muammosiga yechim bo'lishi mumkin.

Har qanday muammoning yechimi bor. Umid qilamizki, yuqoridagi kabi takliflarda ko'zda tutilgan ishlar amaliyotga tatbiq qilinsa, yo'llardagi tirbandliklar, qoidabuzarlik holatlari bartaraf etilishiga erishiladi.

Botirjon BOYMIRZAYEV,
mayor.

Namangan viloyati.



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, haydovchi va piyodalarda harakatlanish madaniyatining yo'qligi ham katta-kichik «probka»larni keltirib chiqarmoqda. Tirbandliklarda harakatlanayotgan avtomashinalarning aksariyatini «Damas» yoki yo'nalishda-

gi boshqa transport vositalari tashkil etyapti. Yo'lovchi mashinalarning ko'pligi esa jamoat transportining erkin harakatlanishiga xalaqit qilmoqda. Shu sababli hamkor tashkilotlar bilan yo'llardagi tirbandliklarga chek qo'yish maqsadida muayyan ishlarni



BIR JINOYAT IZIDAN

«OQ AJAL» ELTUVCHILAR

YOXUD POCHTACHI KABUTARLAR



■ **Qo'rg'ontepa tumani Qorasuv shahrida giyohvandlik moddalarini saqlash va tarqatishda gumon qilingan shaxs qo'lga olindi. Uning uyini tintuv qilish chog'ida gashish joylangan plastik paket topildi. «Gashish qayerdan keldi?» degan savolga 45 yoshli S. Ahmadjon uni shaxsiy foydalanish uchun o'zi tayyorlashini aytdi. Biroq tayyorlashning texnologik jarayonini tushuntirib bera olmadi. Oxir-oqibat, Ahmadjon aybiga iqror bo'lib, gashish qo'shni respublikadan keltirilishini bildirdi.**

Qo'lga olingan shaxs narkotik moddalar solingan o'ramlar skotch yordamida rezina koptokka mahkamlanib, chegara kanali orqali otib yuborilishi, kichik suv

osti robot-qayiq va varraklar haqida turli versiyalarni ayta boshladi. Uning yolg'on gapirayotgani bilinib turardi. Huquqni muhofaza qiluvchilar haqiqatni aniqlash uchun gumon qilinuvchining uyida takror tintuv o'tkazishdi. Ammo boshqa hech narsa topa olishmadi...

Ular ketishga shaylangan paytda xodimlardan biri hovlidagi baland ustunlarda kaptarxona o'rnatilganini ko'rib qoldi. U kabutarlarni ko'rish uchun narvon yordamida yuqoriga ko'tarildi. Ko'zdan kechirish chog'ida esa qushlardan birining oyog'ida yopishib qolgan tibbiy leykoplastir bo'lagiga ko'zi tushdi.

– Tushundim, – qichqirib yubordi tezkor xodim, – ular giyohvandlik moddalarini tashishda pochta kabutarlaridan foydalanishadi!

Gumon qilinuvchi so'roqqa chaqirilganda, tergovchining stolida kabutar solingan qafas turardi.

Ahmadjon «Qayerdan bildingiz?» deb boshini changallab qoldi.

U qo'shni davlatda yashaydigan akasi shunday biznes bilan shug'ullanishni taklif qilganini aytdi. Kabutarlarni kanal orqali «chegara ortiga» uchishga va «yuk» bilan ortga qaytishga o'rgatishgan.

S. Ahmadjon qamoqqa olindi, qo'shni davlatdagi hamkasblarga esa kabutarlar yordamida amalga oshirilayotgan ushbu jinoyat haqida ma'lum qilishdi.

Aytish joizki, Qorasuvda bunday «biznes» bilan nafaqat Ahmadjon shug'ullangan. Tekshiruvlar davomida kabutar ishqibozlari

orasidan boshqa narkotik sotuvchilar ham aniqlanib, qo'lga olindi.

Giyohvandlik moddalarini tashish uchun maxsus kabutarlardan foydalanish g'oyasi yangilik emas. Quvaytda bojxona xizmati xodimlari giyohvandlik moddalarini Iroqdan olib chiqib ketishda narkodillerlarga yordam berayotgan pochta kabutarini ushlab olishdi.

Kabutarga mahkamlangan ryukzakka dillerlar 178 ta narkotik tabletkani joylashtirgan. Kabutar bojxona binosi ustidan uchib o'tayotganida shohidlar tomonidan ushlab olingan.


O'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

EHTIYOT BO'LING: FIRIBGAR!

TEKIN PISHLOQ QOPQONDA BO'LADI

■ **Hozirgi kunda savdo faoliyatining muayyan yo'nalishi bo'yicha hamkorlik qilishni taklif etadiganlar soni ortib bormoqda. Ular fuqarolarni yanada ko'proq jalb etish maqsadida asosiy ish joyidan ajralmagan holda qo'shimcha daromad topish, qimmatbaho sovg'alar olish, hatto chet ellarga sayohatga borish kabi «jozibador» takliflarni bermoqda. Shu bilan birga, ayrim kishilar yiqqan-terganini «kompaniya vakili»ga topshirib, aldanib qolishyapti.**



Nukuslik Zamira Aytjanova (ism-shariflar o'zgartirildi) yangi ochilgan kompaniya haqida eshitib, shahardagi mehmonxonalardan birida ushbu kompaniya vakillari tomonidan tashkil etilgan seminar-treningga bordi. Treningda xorij kompaniyasi ekani, moliya yo'nalishida faoliyat olib borishi, agar fuqarolar 1 oydan 1 yilgacha bo'lgan vaqt mobaynida pul tarzida omonat qo'yishsa, har oy 16 foizdan 26 foizgacha «foйда» to'lab borilishi va'da qilindi. Shuningdek, kimdir izidan bu biznesga odam ergashtira olsa, uning uchun to'lanadigan foiz uni olib kelgan kishi nomiga ochilgan bank plastik kartasiga tushirib borilishi aytili. Hatto mas'uliyati cheklangan jamiyat ko'rinishidagi kompaniya Toshkent shahri, Buxoro, Xorazm, Navoiy, Farg'ona, Andijon, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida filiallari borligi, o'sha filiallardagi biznes hamkorlari allaqachon ma'lum miqdorda pul mablag'lariga ega bo'layotgani bildirildi. Boz ustiga, kompaniya tilla taqinchoqlar savdosi bilan ham shug'ullanib, Tojikistondagi oltin koniga egalik qilishi haqidagi ma'lumotlar video-taqdimot shaklida namoyish etildi.

Albatta, mohirlik bilan yetkazilgan axborot zoye ketmaydi. Seminar ishtirokchilarining bir nechasi shu paytning o'zidayoq mazkur MCHJ bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanini bildirib, shartnoma tuzishga shoshildi. Ular orasida Zamira Aytjanova ham bor edi.

Ko'proq pul topish istagi Zamiraning tinchini buzdi. Shu bois jamiyat tomonidan tuzilgan sxemadagi «lider» darajasiga yetishish niyatida tanishlari – I.X.dan 13 ming, K.M.dan 10 ming, A.Y.dan 7 ming, P.Z.dan 5 ming, T.D.dan 10 ming AQSH dollari miqdoridagi pul mablag'larini kompaniya hisobiga topshirtirish orqali ularni a'zo qiladi. Shu bilan qanoatlanmay, harakatlarini davom ettirib, jami 17 fuqaroning 932 mln so'mdan ortiq pul mablag'ini jamiyatga topshirtirib, a'zo bo'lishini ta'minlaydi.

To'g'ri, avvalboshda va'da qilingan foiz pullari berildi. Ammo oradan biroz muddat o'tib, foiz to'lanishi to'xtab qoldi. Sababi, respublikaning boshqa hududlarida yashovchi fuqarolardan kelib tushgan murojaatga asosan huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan mas'uliyati cheklangan jamiyat ta'sischilari qo'lga olinib, jinoyat ishi ochilgandi. Ularning qatoriga o'z-o'zidan Z. Aytjanova ham tortildi. Unga bir necha yilga ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanib, keltirilgan zararni qoplash majburiyati yuklatildi.

Hurmatli fuqarolar! Firibgarlar tuzog'iga tushib qolmang. Eng avvalo o'yab ko'ring, kengroq fikrlang va masalaning huquqiy tomonlariga jiddiy qarang. Zero, «Tekin pishloq qopqonda bo'ladi» – degan naql bejizga aytilmagan!

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Здоровье

Желчь отвечает за переваривание жиров, работу кишечника, всасывание витаминов. Если с ней есть проблемы – страдают практически все органы и системы.



КАК УЛУЧШИТЬ ЖЕЛЧЕОТТОК

Основные задачи желчи – переваривание жиров, стимуляция работы кишечника, активация ферментов, помощь в всасывании витаминов из пищи. Желчь способна двигаться по организму самостоятельно, но мы можем ей в этом помочь, когда отток нарушается. При этом речь не идет о приеме каких-либо препаратов, многое зави-

сит от наших ежедневных привычек.

1. Больше воды. Если ее недостаточно, желчь может сгущаться, что повлияет на ее отток. Лучше отдавать предпочтение теплой воде, пить утром натощак.

2. Делать по утрам пятиминутную гимнастику. Идеально, если будут наклоны вперед, опуская голову ниже талии.

3. Обязательно завтракать. Свойством стимулировать отток желчи обладают каши из цельнозерновых круп, отруби, отварное мясо, сваренные вкрутую яйца, кисломолочные продукты.

4. Пить минеральную воду. Она обогащает организм элементами, которые улучшают желчеотток.

5. Включать жиры в рацион – нерафинированное масло, орехи.

6. Добавлять в пищу горькие продукты. Они способны простимулировать желчь к движению. К ним относятся грейпфруты, редька, горький шоколад.

7. Промежутки между пищей каждые три-четыре часа.

8. Меньше переживать. Гнев, стресс заставляют организм замирать. Справиться с эмоциями помогут чтение, медитация, дыхательная гимнастика.



SALOMATLIK SABOQLARI

GIPOTONIKLAR UCHUN MUHIM MASLAHATLAR

Odatda ko'pchilik bemorlar qon bosimi baland bo'lishidan qo'rqib, doimiy ravishda qon bosimini tushirishga oid tavsiyalarga amal qilib yuradi. Ularni biz gipertoniklar, ya'ni doim arterial qon bosimi baland yuradiganlar, deymiz. Ammo yana bir toifa bemorlarimiz borki, ular ham doimiy ravishda qon bosimiga e'tibor berishlari shart. Chunki gipertoniya ko'ra gipotoniya, ya'ni qon bosimining pastligi jiddiyroq va ba'zi hollarda, og'ir oqibatlariga olib keladi.



Gipotoniklar uxlashni juda yaxshi ko'radilar. Agar odam o'rtacha 6–8 soatlik uyquga muhtoj bo'lsa, «minus» qon bosimidagilar 9–12 soat uxlashadi. Ularni «uyquchi, dangasa» deb ham atashadi, lekin aslida ertalab uzoq vaqt

uxlash va «dangasa» bo'lish gipotoniklar tanasining normal ehtiyoji hisoblanadi.

Quyida gipotoniklarga ertalab o'zlarini yanada qulay va quvnoq his qilishda yordam beradigan oddiy, ammo muhim tavsiyalar mavjud:

- hech qachon yotgan joyingizdan keskin ko'tarilmang;

- uyg'onganingizdan so'ng yana bir necha daqiqa yotib, qo'llarni va oyoqlaringizni harakatlantirib, keyin asta-sekin yotoqda o'tiring;

- endi vertikal holatga o'rganib, asta-sekin turing. Unutmang, bu ertalabki bosh aylanishining oldini olish va hushdan ketmaslik uchun juda muhim!

Quyidagi tavsiyalarimiz ham gipotoniklarga asqatishi tayin:

- kun davomida 2 litrgacha suyuqlik iching;

- kuniga 4–5 marta ovqatlaning (oziq-ovqat tarkibida V guruh, C va E vitaminlari yetarli bo'lishi kerak);



- yuqori kislotalilik bilan gastritga moyilligingiz bo'lsa, unda achchiq, sho'r, dudlangan, ziravorli va qovurilgan taomlardan «qoching».

Gipotoniklarning organizmi jismoniy mashg'ulotlarni juda yomon qabul qiladi. Shuning uchun ham ularga mushak va qon tomir tarangligini oshiradigan mashqlarni, masalan, suv muolajalari,

massaj va gidromassajlar bajarish tavsiya etiladi. Biroq kontrastli dush, sauna kabi haroratning keskin o'zgarishi bilan bog'liq muolajalardan ehtiyot bo'lishingiz kerak.

M. RAHIMOVA,
Buxoro viloyati IIB
DPM Tibbiyot bo'limi
poliklinikasi
shifokor-kardiologi.

IIV Malaka oshirish instituti rahbariyati va shaxsiy tarkibi Kasbiy tayyorgarlik fakulteti o'quv-saf qismi komandiri, podpolkovnik Mirkomil Komilovga volidayi muhtaramasi

Mamlakatxon SULEYMANOVAning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.



Кашкадарьинская область



Управление по обеспечению безопасного туризма УВД Кашкадарьинской области вносит достойный вклад в формирование привлекательного имиджа региона, привлечение отечественных и зарубежных любителей путешествий.



Наряду с выполнением непосредственных обязанностей, сотрудники управления оказывают

всемерное содействие гостям в получении подробной информации об исторических достоприме-

чательностях края, древних традициях и обычаях жителей. С этой целью внедрена интегрированная электронная программа «E-mehmon». Она создает удобства туристам при получении информации по интересующим их вопросам.

Для справки: в 2023 году Кашкадарьинскую область посетили более 225 тысяч иностранных туристов.

Маъруф МАДИЕВ,
подполковник.



MUNAJJIMLAR BASHORATI

(5 - 11-fevral)



Qo'y. Sizni ish va tashvishlarga boy hafta kutmoqda. Hafta o'rtasida kuzatilgan pul tushumi ko'pgina muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Oila a'zolari bilan biroz tortishib qolishingiz mumkin. Kuch-quvvatingizni foydali ishga yo'naltirishni uddalay olmasangiz, bundan aslo achchiqlanmang, yaxshisi sport bilan shug'ullaning yoki hafta so'ngida dam olishni kanda qilmang.



Buzoq. Hafta boshida kutilgan natijalar o'zini oqlamaydi, lekin chorshanbadan keyin ham shaxsiy hayotda, ham ishda ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Buning uchun fidoyilik va faollikni namoyon etish, mas'uliyatni zimmaga olishdan cho'chimaslik lozim. Kelayotgan haftada oilaviy masalalarni hal etish uchun yaxshi imkoniyat tug'iladi.



Egizaklar. Bu davr, umuman olganda, omadli kechadi. Ish odamlarini qiziqarli taklif, yollanma ishchilarni yaxshi mukofotli yangi loyiha kutmoqda, ijodiy shaxslar va erkin faoliyat yurituvchilar esa doimiy ishga ega bo'lishadi. Dam olish kunlari sizni yoqimli sovg'a va yaqinlar bilan uchrashuv kutmoqda.



Qisqichbaqa. Bu hafta sizga yaxshi kayfiyat va ruhiy ko'tarinkilik hamrohlik qiladi. Ish joyingizda yangi yutuq va muvaffaqiyatlarga erishasiz. Asosiysi, o'zingizga bo'lgan ishonchni yo'qotmang, o'z nuqtai nazarinigizni himoya qilishdan cho'chimang. Dam olish kunlari hushyor va kuzatuvchan bo'lish talab etiladi.



Arslon. Bu hafta sizdan alohida kuzatuvchanlik talab etiladi. Begonalar ishingizga aralashishiga yo'l qo'ymang. Faqat shundagina rejadagi barcha ishlar ko'ngildagidek amalga oshadi. Bu davrda oilaviy masalalarni hal etish uchun ham imkoniyat tug'iladi.



Parizod. Hafta o'rtalarida uzoq kutilgan qarzingizni qaytarishadi yoki ko'p maoshli ishga taklif olasiz. Juma kundan keyin ish joyida tushunmovchiliklar, moliyaviy qiyinchiliklar va oilada muammolar kuzatilishi mumkin. Bunga siz tomondan mas'uliyatning sustlashishi va intizomga amal qilmaslik sabab bo'ladi.



Tarozi. Kelayotgan hafta omadsizlik bilan boshlanadi. Biroq aslo tushkunlikka tushmang va asabiylashmang, chunki hafta o'rtalarida vaziyat barqarorlashib, ko'nglingiz ancha taskin topadi. Dam olish kunlari miriqib hordiq olishga e'tibor qarating. Shanba va yakshanba kunlari oila a'zolarinigiz bilan tabiat qo'yniga sayrga chiqish yoki birgalikda mehmonga borish uchun maqbuldir.



Chayon. Haftaning ilk kunlari deyarli har jabhada sizga omad kulib boqadi. Bu vaqt ichida yaxshigina daromadga ega bo'lishingiz, yaqin do'stingiz kutilmagan amali bilan sizni quvontirishi mumkin.



O'qotar. Ushbu hafta sizdan katta mas'uliyat talab etiladi. Ammo bir necha ishni birvarakayiga bajarishga urinmang. Barchasini reja bilan, avvalo, eng muhimlaridan boshlab amalga oshirish maqsadga muvofiq. Juma kuni sizni muvaffaqiyatsizliklar ta'qib etishi mumkin, bunga yo'l qo'ymaslikka harakat qiling.



Tog' echkisi. Dushanba va seshanba kunlari qiyinchiliklarga shay turing. Ish joyida muammolar kuzatilishi mumkin. Hafta o'rtalarida istiqbolli tanishuv va biron tadbirga taklif ko'rinishida yoqimli sovg'a kutmoqda. Dam olish kunlari qisqa muddatga bo'lsa ham tabiat qo'yniga sayrga chiqing.




Qovg'a. Ish joyingizda muvaffaqiyatlar va oilada yoqimli tashvishlar kutmoqda. Payshanba yangi imkoniyatlar va muvaffaqiyatlar tuhfa etadi. Haftaning ikkinchi yarmida salomatligingizga jiddiy e'tibor qarating. Yakshanba kuni hech qanday ishni rejalashtirmay, maroqli dam oling.



Baliq. Hafta omadli kechadi. Siz kerak vaqtda kerakli joyda bo'lasiz, foydali tanishuvlar esa kelgusi hayotingizda asqatishi tayin. O'z fikringizni bildirishdan yoki biron harakat qilishdan cho'chimang. Har bir ishga o'zingizga kuchli ishonch bilan kirishing. Dam olish kunlarini do'stlar va yaqinlar davrasida o'tkazing.

«ULLI HOVLI» MAJMUASI



Urganch tumanidagi «Turkmanlar» mahallasi-da joylashgan «Ulli hovli» majmuasi qadimda turkman millatiga mansub aholi yashagan eng katta turarjoy bo'lgan. Yuz xonadan iborat mazkur hovlida Ola uylik turkmanlarining 15 ta oilasi tinch-totuv hayot kechirgan. Shu bois unga «ulli», ya'ni katta degan ma'noni anglatuvchi sifat berilgan. Ushbu muborak maskan Xorazmshoh Abulg'oz Bahodirxon tomonidan XVII asrda bunyod qilingan.

«Ulli hovli» majmuasi 2017–2018-yillarda qayta ta'mirlanib, asl holiga keltirildi va zamonaviy sayyohlik markaziga aylantirildi. Ayni kunda majmua mahalliy va xorijiy sayyohlarning eng sevimli maskanlaridan biridir.

Mazkur majmuaga hovli qurilishi tashabbuskorlaridan biri bo'lgan Shermamatboyning yettinchi avlodi Davlatnazar Rajabov rahbarlik qilmoqda.

– Bu imoratlar poydevorsiz qurilgan, – deydi Davlatnazar ota Rajabov. – Devorlarning osti bir metr kovlanib, qum solingan va ustiga qamish to'shalib, so'ng paxsa urilgan. Devorlar nuramasdan o'z holicha saqlanishida ota-bobolarimiz qo'llagan bu texnologiyaning o'rni be-nihoya katta. Biz unga hech qanday o'zgartirish kiritganimiz yo'q. Faqat loysuvoq qilib ta'mirlaganmiz, xolos.

Salkam bir gektar yer maydonida joylashgan «Ulli hovli» qo'rg'oni o'z nomiga monand maskan. Bu yerda 150 o'ringa mo'ljallangan oshxona va mehmonxona tashkil etilgan, o'tovlar tikilgan. Bundan tashqari, milliy hunarmandlik, o'zbek-turkman urf-odat va an'analari bilan eksponatlar bilan boyitilgan. Qolaversa, majmuada sayyohlar nafaqat tarixiy obidalar, balki katta «G'azovot» kanali sohilida barpo etilgan so'lim maskanlar – yozgi va qishki oromgohlarda tabiat manzaralaridan bahramand bo'lishadi. Milliy taomlardan tatib, ularni tayyorlash jarayonida ishtirok etishadi. Tegirmonda un va guruch tayyorlash usullariga guvoh bo'lishadi.

O'zbek va turkman millatlari azaliy do'stligining yorqin namunasi bo'lgan «Ulli hovli» majmuasiga bugun ko'plab xorijiy mamlakatlardan va albatta qo'shni Turkmanistondan yuzlab sayyohlar tashrif buyurishyapti. Ular bu yerda bir ariqdan suv ichib, ahil va inoq yashab kelgan azaliy do'st qardosh xalqlarning boy tarixi va madaniyati, mushtarak maqsadlari, turmush tarzi, urf-odatlarini, milliy an'analari bilan yaqindan tanishishmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



Postda
Ha nochy

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Sarvar SOBIROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma № 311.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50401 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

